

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
MAGISTRATURA BO'LIMI

Qo'lyozma huquqida
UDK 811.512.133:81.373/008

MENGPOLATOVA HAFIZA MUHIDDINOVNA

LINGVOKULTUROLOGIYADA REALIYANI IFODALOVCHI BIRLIKLAR

70230101-Lingvistika: o'zbek tili mutaxassisligi bo'yicha magistr darajasini olish
uchun taqdim etilgan
DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
Filologiya fanlari falsafa doktori
N.Kurbanazarova

Termiz - 2023

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 2022-yil №20-T/M sonli buyrug'i asosida tasdiqlangan.

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasida bajarilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy veb sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya manzilining QR-kodi:



Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan. Manzil: Termiz shahri Barkamol avlod ko'chasi 48-uy.)

Ilmiy rahbar	_____	PhD. N. Kurbanazarova
Kafedra mudiri:	_____	PhD. N. Amonturdiyev
Magistratura bo'lim boshlig'i	_____	PhD. A.B. Narbayev

70230101 – Lingvistika (o'zbek tili) mutaxassisligi magistranti Mengpo'latova
Hafiza Muhiddinovna "Lingvokulturologiyada realiyani ifodalovchi birliklar"
mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

ANNOTATSIYASI

Tayanch so'zlar: realiya, stereotip, ramz, metafora, lakuna, milliy realiya, adabiy til, assotsiativ realiya, noekivalent leksika

Tadqiqotningning predmeti va obykti. Tadqiqotning obykti xalq madaniyatining o'ziga xos milliy til xususiyatlarini aniqlash va tadqiq etishdan iboratdir. Xalq madaniyatning tilda yorqin ifodasini o'zida namoyon etuvchi noekvivalent leksika va lakunlar, tilda o'z aksini topgan rasm-rusum va odatlar, tilning paremiologik fondi, ramzlar, tildagi milliy taom nomlari, milliy kiyim kechak nomlari mazkur dissertatsiyaning tadqiqot predmeti sifatida belgilanadi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Tadqiqot ishida lingvokulturologiyaning fan sifatida shakllanishi va ilmiy asoslanishi, til va madaniyatning o'zaro ta'siri va bog'liqligi, bu bog'liqlikning shakllanishi hamda yaxlit bir sistema sifatida til va tildan tashqari (madaniyat)da aks etishi bilan bog'liq hodisalar hamda realiyalarni belgilash va o'rganish, madaniyat hodisasi sifatida realiyaning turli jihatlarini yaxlit ko'rish va nazariy tahlil qilishni rivojlantirish mazkur ishning maqsadini tashkil qiladi. Tadqiqot muammosi va tadqiqot oldiga qo'yilgan maqsadga ko'ra quyidagilar vazifa sifatida belgilandi:

1. Realialarning fanda o'rganilishiga munosabat bildirish;
2. Realialar haqida tushunchaga oydinlik kiritish;
3. Realialarning boshqa leksik birliklar orasidagi o'rnini aniqlash;
4. Realialarni tasniflash muammolarini tahlil etish;

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi sifatida quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin:

- tadqiqotda ilk bor lingvomadaniy birliklar – realiya va ramz, realiya va stereotip, realiya va metafora bir-biri bilan o'zaro solishtirildi va o'xshash,

farqli tomonlari tahlil qilindi;

- milliy realiyani ifodalovchi birliklar o'rganilib, semantik jihatdan tahlil qilingan;

- o'zbek xalq dostonlarida milliy realiyani ifodalovchi jihatlar o'rganilib, lingvomadaniy tahlilga tortilgan.

Units representing reality in linguistic culture

Master's thesis on the subject

ANNOTATION

Key words: reality, stereotype, symbol, metaphor, lacuna, national reality, literary language, folk epics, associative reality

Subject and object of the research. The object of the research is to identify and study the specific national characteristics of the people's culture. Non-equivalent lexicons and lacunae that show the vivid expression of folk culture in the language, pictures and customs reflected in the language, paremiological fund of the language, symbols, names of national food in the language, names of national clothing are defined as the research subject of this dissertation.

The goals and objectives of the research. In the research work, the phenomena and stereotypes related to the formation and scientific foundation of linguo-cultural science as a science, the interaction and connection between language and culture, the formation of this connection and the reflection of language as a whole system outside the world (culture) defining and studying, developing a holistic view and theoretical analysis of various aspects of the stereotype as a cultural phenomenon is the purpose of this work. According to the research problem and the research goal, the following tasks were defined:

1. Responding to the study of realities in science;
2. Clarifying the understanding of realities;
3. Determining the place of realia among other lexical units;
4. Analysis of problems of classification of realities;

Scientific innovation of research. We can point out the following as a scientific novelty of the research:

- for the first time in the study, linguistic and cultural units – reality and symbol, reality and stereotype, reality and metaphor were compared with each other and their similarities and differences were analyzed;
- the units representing the national reality were studied and analyzed semantically;
- aspects representing national reality in Uzbek folk epics were studied and analyzed in linguistic and cultural terms.



MUNDARIJA

Kirish.....8

I bob. Lingvokulturologiyaga oid tadqiqotlar va milliy realiya tushunchasi

1.1. Lingvokulturologiyaning dunyo tilshunosligida tutgan o'рни va o'zbek tilshunosligidagi tadqiqi.....12

1.2. Lingvomadaniy birliklarning o'ziga xos xususiyatlari.....18

1.3. Realıya – muhim lingvomadaniy birlik.....22

Bob bo'yicha xulosalar.....33

II bob. O'zbek lingvomadaniyatida milliy realiyani hosil qiluvchi va ifodalovchi birliklar

2.1. Milliy realiya va ramz.....34

2.2. Milliy realiya va stereotip.....43

2.3. Milliy realiya va metafora.....49

Bob bo'yicha xulosalar.....54

III bob. O'zbek tilida realiyaning lingvopoetik tahlili

3.1. Badiiy asarlarda realiya ifodasi.....55

3.2. O'zbek xalq dostonlarida realiya ifodasi.....61

3.3. Maqollarda realiya ifodasi.....67

Bob bo'yicha xulosalar.....74

XULOSA.....75

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....78

Kirish.

Disertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo tilshunosligida til vositalariga har bir xalqning urf-odatlarini va an'analarini aks ettiruvchi, milliy o'zligini anglatuvchi, ma'naviyatini belgilovchi muhim omil sifatida qarab kelinadi. Har bir milliy tilning o'ziga xos takrorlanmas ma'no va mazmunga ega lug'aviy ma'noga ega bo'lgan lug'aviy birliklari mavjud bo'lib, uni xalq madaniyati, ma'naviy qadriyatlarini, o'ziga xos tafakkur tarzi va milliy-tarixiy an'analarini bilan bog'liq ravishda o'rganish muhim hisoblanadi va mazkur tadqiqot ishi mavzusining dolzarbligini ko'rsatib beradi. Realialar, rivojlanib borayotgan jamiyatda keyingi vaqtlarda yuzaga kelayotgan tushunchalar hisoblanib milliy madaniyatlarning orasida farqlar yuzaga kelgan vaqtda paydo bo'ladi. Realialarni boshqa yondosh tushunchalardan farqi ularning predmet ma'nosiga har bir millatlarning madaniyatini ifodalovchi narsa-buyum haq tushunchalarni ifodalaydi. "Realia" so'zining etimologiyasiga to'xtaladigan bo'lsak, lotincha "moddiy" degan tushunchaga teng keladi. Tilshunoslikda milliy predmetlarni, urf-odatlarini, milliy taom nomlarini ifodalovchi so'zlar va so'z birikmalari keng ma'noda realialar hisoblanadi.

O'zbek tilshunosligida tilni o'zbek xalqining urf-odatlarini, tarixiy an'analarini va ma'naviy olami bilan bog'liq ravishda o'rganishga bo'lgan qiziqish kuchayib bormoqda. Zero, "Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlarga qoldirish, davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir". Urf-odatlar ma'lum etnosning etnografik jihatdan o'ziga xosligini belgilovchi muhim tomoni bo'lib, ularning til vositalari orqali ifodalanishi tilshunoslik uchun ham etnografiya uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Har bir hudud o'zining etnografik leksikasiga ega bo'lib, ularni to'plash, lingvistik jihatdan tadqiq qilib, til vositasi sifatida avloddan avlodga yetkazish ko'pgina lingvistik muammolarni yechilishi uchun imkon yaratadi.

¹ Mirziyoyev Sh.M Milliy tarqatqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz.1 jild - Toshkent; O'zbekiston,201.-B.29



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yilning 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"²gi PF-4947-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabridagi "O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha Oliy ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi" gi PF-584-son Qarori, 2019- yil 21- oktabridagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5850-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 -yil 20-oktabrida "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan ta'lim va fanning barcha sohalarida axborot texnologiyalarini joriy etish haqidagi takliflari, hamda mazkur faoliyatga tegishli bo'lgan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Til va madaniyatning bog'liqligi madaniyatning tilda aks etish muammosi bilan bog'liq masalalarning metodologik asosi yaqin yillardangina boshlandi. Ularning asosi sifatida V.Vorobyov, V.M.Shaklein, V.N.Teliya, V.A.Maslovalarning ishlari xizmat qiladi. O'zbek tilshunoslik ilmida ham bu yo'nalishda qator ishlar olib borilmoqda. Xususan, o'zbek tilshunosligida lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishi, madaniyatning tilda aks etishi kabi qator masalalarga qaratilgan dastlabki ishlar sifatida A.Nurmonovning "O'zbek tilida lingvokulturologik yo'nalish", N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab", N.Sayidrahimovanning "Lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishiga doir ayrim mulohazalar", "Lingvokulturologiyaning komponentlari" nomli maqolalarini, D.Xudoyberganovanning "Matnning atropotsentrik tadqiqi" mavzusidagi

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги Фармони // Халқ сўзи, 2017, 8 февраль. № 28 (6722)

monografiyasini belgilash mumkin. Mazkur ishlarda lingvokulturologiya fanining mohiyati, predmeti va obykti masalalari o'rganilgan.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning predmeti va obykti. Tadqiqotning obykti xalq madaniyatining o'ziga xos milliy til xususiyatlarini aniqlash va tadqiq etishdan iboratdir. Xalq madaniyatning tilda yorqin ifodasini o'zida namoyon etuvchi noekvivlaent leksika va lakunlar, tilda o'z aksini topgan rasm-rusum va odatlar, tilning paremiologik fondi, ramzlar, tildagi milliy taom nomlari, milliy kiyim kechak nomlari mazkur dissertatsiyaning tadqiqot predmeti sifatida belgilanadi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Tadqiqot ishida lingvokulturologiyaning fan sifatida shakllanishi va ilmiy asoslanishi, til va madaniyatning o'zaro ta'siri va bog'liqligi, bu bog'liqlikning shakllanishi hamda yaxlit bir sistema sifatida til vatildan tashqari (madaniyat)da aks etishi bilan bog'liq hodisalar hamda realiyalarni aniqlash va o'rganish, madaniyat hodisasi sifatida realiyaning turli jihatlarini yaxlit ko'rish va nazariy tahlil qilishni rivojlantirish mazkur ishning maqsadini tashkil qiladi. Tadqiqot muammosi va tadqiqot oldiga qo'yilgan maqsadga ko'ra quyidagilar vazifa sifatida belgilandi:

1. Realialarning fanda o'rganilishiga munosabat bildirish;
2. Realialar haqida tushunchaga oydinlik kiritish;
3. Realialarning boshqa leksik birliklar orasidagi o'rnini aniqlash;
4. Realialarni tasniflash muammolarini tahlil etish;

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi sifatida quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin:

- tadqiqotda ilk bor lingvomadaniy birliklar - realiya va ramz, realiya va

stereotip, realiya va metofora bir-biri bilan o'zaro solishtirildi va o'xshash, farqli tomonlari tahlil qilindi;

- milliy realiyani ifodalovchi birliklar o'rganilib, semantik jihatdan tahlil qilingan;

- o'zbek xalq dostonlarida milliy realiyani ifodalovchi jihatlar o'rganilib, lingvomadaniy tahlilga tortilgan.

Ishning tuzilishi va hajmi. Mazkur tadqiqot ishning umumiy tavsifi, kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, lug'at qismidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 84 sahifadan iborat.

I BOB. LINGVOKULTUROLOGIYAGA OID TADQIQOTLAR VA MILLIY REALIYA



TUSHUNCHASI

1.1 Lingvokulturologiyaning dunyo tilshunosligida tutgan o'рни va o'zbek tilshunosligidagi tadqiqi

XX asrning 90- yillarida tilshunoslik bilan madaniyatshunoslik orasida yangi fan sohasi, lingvokulturologiya paydo bo'ldi. U tilshunoslikning mustaqil yo'nalishi sifatida tan olindi. Lingvokulturologiyaning shakllanishi haqida deyarli barcha tadqiqotchilar ushbu nazariyaning ildizi V.fon Gumboldtga borib taqalishini ta'kidlaydilar.

Lingvomadaniyatshunoslik tilning madaniyat, etnos, milliy mentallik bilan o'zaro aloqasi va ta'sirini antroposentrik paradigma tamoyillari asosida o'rganuvchi sohadir. Ushbu soha XX asrning so'nggi choragida shakllanadi, *lingvokulturologiya* termini esa V.N.Teliya rahbarligida Moskva frazeologik maktabi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida paydo bo'ldi.

Lingvokulturologiya sohasida jiddiy tadqiqotlar yaratgan V.A.Maslova ushbu sohaning rivojini uch bosqichga ajratadi: 1) fan shakllanishiga turtki bo'lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi kabi tilshunoslarning ishlari; 2) lingvokulturologiyaning alohida soha sifatida ajratilishi; 3)lingvokulturologiyaning rivojlanish bosqichi izohlaydi.

Lingvokulturologiya fanini professor O'.Yusupov quyidagicha izohlaydi: "Lingvokulterema - o'z semantikasida madaniyatning biror bo'lagini aks ettiruvchi til yoki nutq birligi. Lingvokulturemalarga madaniyatning biror bo'lagini aks ettiruvchi so'zlar, frazeologik birliklar, matnlar va hokazolar kiradi. Lingvokulturema mazmun va ifoda planini esa o'sha birliklarning semantikasi tashkil qiladi. Demak, lingvokulturema kontseptdan o'zining mazmun va ifoda planiga ega bo'lishi bilan farq qiladi, lingvokulturologiya uchun xalq madaniyatini lisoniy ko'rinishda namoyon etish asosiy vazifa hisoblanadi³". Uningcha, "lingvokulterema" tushunchasi qiyosiy tilshunoslik

³ Qarang : Ahmedova Odinaxon Abdullajon qizi .//Lingokulturologiya tilning madaniy fenomeni sifatida

uchun foydali, “zero til – madaniy fakt, biz meros qilib oladigan madaniyatning tarkibiy qismi va ayni paytda qurol hamdir. Xalq madaniyati til orqali verballashadi, aynan til madaniyatining tayanch, asosiy tushunchalarini harakatga keltiradi va ularni belgilar ko‘rinishida, ya’ni so‘zlar vositasida ifoda etadi”.

Lingvokulturologiyaning asosiy tadqiqot predmeti esa doimiy o‘zaro ta’sirlashish holatida bo‘lgan ham til, ham madaniyat hisoblanadi. Lingvokulturologiyaning tadqiqot manbalari madaniyatda ramziy, obrazli, metaforik ma’no kasb etgan va natijalari inson ongida umumlashtirilib mif, afsona, folklor va diniy diskurslarda, poetik va prozaik badiiy matnlarda, frazeologizmlarda, metaforalarda va ramzlarda aks etadigan til birliklari sanaladi. Bunda muayyan lingvokulturologik birlik bir paytning o‘zida bir qancha semiotik tizimlarga tegishli bo‘lishi mumkin. Tadqiqot obyektining vaziyatidan kelib chiqqan holda, uning alohida lingvokulturologik birliklardan tashkil topgan bir qancha predmetlarini ko‘rsatish mumkin. “Madaniyat” lotincha “Colere” so‘zidan olingan bo‘lib, “ishlov berish, tarbiyalash, rivojlanish, hurmat qilish, ibodat” ma’nolarini anglatadi XVIII asrdan boshlab “madaniyat” atamasi inson faoliyatining mahsuli bo‘lgan barcha narsalarga nisbatan qo‘llanilishida saqlanib qolgan, ammo aslida bu so‘z “insonning tabiatiga maqsadli ta’siri, tabiatning inson manfaatlari uchun o‘zgartirilishi, ya’ni yerga ishlov berilishi” (qishloq xo‘jalik madaniyati) degan ma’noni anglatadi. Keyinchalik “madaniyat” atamasi bilimdon, ma’rifatli, yuksak, tarbiyali insonlarni ta’riflashda ham ishlatila boshlagan.

XXI asr boshiga kelib lingvokulturologiya dunyo tilshunosligidagi yetakchi yo‘nalishlardan biriga aylanib ulgurdi. Lingvokulturologiya tilni fenomeni sifatida o‘rganuvchi fan bo‘lib, o‘zaro aloqadorlikda bo‘lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil etadi.

Lingvokulturologiyaning oldiga qo‘ygan asosiy maqsadi turli millat,

xalqlarning madaniyati, turmush tarzi, xalqlarning tafakkuri, uning olamni, qanday tushunishdagi o'ziga xos jihatlarning tilda aks etishini o'rganishdan iborat. Ushbu sohaning obyekti til va madaniyat, predmeti esa o'zida madaniy semantikani namoyon etuvchi lisoniy birliklar hisoblanadi. Lingvokulturologiyada asosan, madaniy axborot tashuvchi til birliklari o'rganiladi. Lingvomadaniy birliklarga quyidagilar kiradi: ramz, realiya, stereotip, metafora, etalon, lakunalar, nutqiy etiketlar, lingvomadaniy kodlar, mifologema, parameologik birliklar. Til sohiblarining milliy-madaniy mentalligini aks ettiruvchi lisoniy birliklar, insoniyatning qadimiy tasavvurlariga muvofiq keluvchi madaniy arxetiplar, nutqiy muloqotga xos bo'lgan milliy ijtimoiy-madaniy stereotiplar, olamning lisoniy manzarasini, madaniyatning asosiy konseptlari majmuyi bo'lgan konseptosfera, lisoniy manzarasini madaniyatning asosiy konseptlari majmuyi bo'lgan konseptosfera, lisoniy ongni tavsiflash hamda aniqlash lingvomadaniy tadqiqotlarning asosiy vazifasi hisoblanadi⁴.

Lingvokulturologik yondashuvdagi tadqiqotlar o'zbek tilshunosligida oxirgi o'n yilliklarda paydo bo'la boshladi. Professor N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi va yo'llarini izlab⁵" nomli maqolasida lingvokulturologiya, umuman, antroposentrik paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib beriladi. Ushbu maqolani o'zbek tilshunosligida lingvokulturologiya haqida jiddiy mulohazalar bayon qilingan birinchi asar sifatida baholash mumkin. Maqolada lingvokulturologik nazariyaning shakllanishi uchun xizmat qilgan omillar, undagi asosiy tushunchalar, ularning talqinidagi har xilliklar haqida juda asosli mulohazalar aytilgan.

Ma'lumki, tillar orasida farqlar odatda, madaniyatlar orasidagi farqlar bilan asoslanadi. Shu jumladan, muqobilsiz leksika deb atalgan birliklar ma'lum bir xalq milliy madaniyatiga xos hodisalarni aks ettirishiga ko'ra belgilanadi.

⁴ Сабитова З. К. Лингвokulturoлогия: учебник. -М.:Флинта: Наука, 2013 45 с

⁵ Mahmudov N. - Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...// O'zbek tili va adabiyoti. -Toshkent, 2012. -№5. -Б. 3-16.

L.S.Barxudorovning yozishicha, “Muqobilsiz leksika – bir tildagi leksik birliklarning boshqa tilda to‘liq yoki qisman muqobiliga ega bo‘lmasligidir⁶” U muqobilsiz leksikaga quyidagi guruhdagi birliklarni kiritadi:

1. Atoqli otlar – geografik joy nomlari, tashkilot, korxonalar, gazeta kabi nomlar;
2. Realialar – boshqa tilda so‘zlashuvchilarning amaliy tajribalarida mavjud bo‘lmagan predmetlar, tushunchalar va vazifalarni ifodalovchi so‘zlar. Masalan, milliy taom nomlari milliy libos kabilari;
3. Tasodifiy lakunalar – biron bir tildagi leksik birliklarning qandaydir sabablarga ko‘ra boshqa tilning leksik tarkibiga mos kelmasligi”.

Dunyo tillarida ba’zi terminlar ham borki, ular muqobilsiz leksika tarkibiga kira oladi. Bunday terminlarni lingvokulturologiyada maxsus o‘rganish nafaqat tillar, turli madaniyatlarda o‘ziga xos tomonlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Xalqlarning turmush sharoiti, tirikchilik sharoitlari, urf-odat, rasm-rusum, irim-sirim, udumlarida juda katta farqlar bor. Mavjud lug‘atlardan ushbu so‘zlarga muqobil so‘z topib bo‘lmaydi. Agar topilganda ham ulardan foydalanish qiyin, negaki bunday so‘z asarda tasvirlangan voqeaga o‘zgacha milliy ma‘no berishi mumkin. Buni esa tarjimachilikda realialar va ularni tarjima qilish usullariga bog‘liq masala bilan ifodalanishi mumkin.

O‘zbek lingvomadaniyatshunosligi bilan bog‘liq muammolaridan biri, nazarimizda, mazkur soha terminologiyasi bilan bog‘liq. Lingvomadaniy yo‘nalishdagi tadqiqotlar natijasida lingvomadaniyatshunoslik bilan bog‘liq bir qancha terminlar o‘zbek tilshunosligiga oid terminlar tizimidan o‘rin oldi: lingvomadaniyatshunoslik, lingvomadaniy birliklar, lingvomadaniy kodlar, pretsedent birliklar, matn-metafora, matn o‘xshatish, milliy madaniy so‘zlar, milliy-madaniy konnotasiya, mifologema, submadaniyat, lisoniy ong, lingvomadaniy hamjamiyat, konseptosfera, arxetip va b. Aytish joizki,

⁶ Barxudarov L.S. Til va tarjima. Tarjimaning umumiy va xususiy nazariyasi masalalari. 1975. 240 b

⁷. Qarang. Barxudarov L.S. Til va tarjima. Tarjimaning umumiy va xususiy nazariyasi masalalari. 1975. 240 b

mazkur birliklar tilshunosligimizga termini aynan o'zlashtirish yoki kalkalash yo'li qabul qilindi. 2019- yilda nashr qilingan "Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati"⁸da yangi terminlarni shakllantirishda o'zbek tilining ichki imkoniyatlaridan imkon qadar foydalanishga harakat qilingan. Masalan, "Verbal va noverbal unsurlarning uyg'unlashuvi natijasida hosil bo'lgan matn" ma'nosida qo'llanuvchi ruscha kreolizovanniy tekst termini lug'atda uyg'un matn tarzida berilgan⁹. Chunki bunday matnlarda turli madaniy-semiotik maydonlar (til, musiqa, tasvir) uyg'unlashib, yagona vizual, tuzilmaviy hamda mazmuniy yaxlitlikni hosil qiladi. Keyingi yillarda tadqiqotlar ko'lami ortganligi sababli tilimizga lingvomadaniyatshunoslikka oid yangi terminlar kirib keldi. Ularning ayrimlarida variantlilik kuzatishimiz mumkin. Masalan: lingvokulturologiya, lingvomadaniyatshunoslik, lisoniy madaniyatshunoslik, olamning lisoniy manzarasi, lingvomadaniy birlik, lingvokulterema, temporal kod, vaqtga doir kod. Bu kabi birliklarni terminshunoslik mezonlari asosida baholash, amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish zaruriy vazifalaridan biridir.

O'zbek tilshunosligida tilni o'zbek xalqining urf-odatlarini, tarixiy an'analari va ma'naviy olami bilan bog'liq ravishda o'rganishga bo'lgan qiziqish kuchayib bormoqda. Zero, "Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlarga qoldirish, davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Lingvomadaniy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish ham lingvomadaniyatshunoslikning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Tilimizda shunday obrazli ifodalar, turg'un birliklar borki, ularni lingvomadaniy yondashuvga tadqiq etish o'zbek tilining ochilmagan qirralarini ko'rsatishga xizmat qiladi. Topishmoqlar, iboralar, maqollar mana shunday birliklar sirasiga kiradi.

⁸ Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. Toshkent, Turon zamin ziyo, 2015. - B.41.

⁹ Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati Toshkent, Turon zamin ziyo, 2015. - B.55.

O'zbek xalqining asrlar davomida mashxur bo'lib kelayotgan iboralarini tahlil qilish mobaynida ayni shu haqiqatga guvoh bo'lish mumkin. Shuningdek, o'zbek xalqining madaniy yuksakligi, so'zlarni o'z o'rnida topib ishlatilishi, ta'sirchanlikni, ifodalilikni go'zal namoyon etilishi milliy kiyimlar bilan bog'liq barqaror birikmalarda ham o'z aksini topgan.

Realiya haqida so'z ketar ekan, birinchi navbatda shu vaqtga qadar realiyaga oid bo'lgan ilmiy ishlarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq deb hisobladik. Shulardan dastlabkisi bolgar olimlari S.Vloxov va S.Florinlarning ta'kidlashicha: "Realiya" muayyan bir xalqning hayotiga talluqli bo'lgan va boshqa tillarda aniq muqobiliga ega bo'lmagan va o'ziga xos yondashuvning talab qiladigan so'zlar va so'z birikmalaridir¹⁰.

A.V.Feodorov - realiyalar deganda, original matndagi hududiy ko'rinishini ifodalovchi, biroq o'zga xalq hayotida yoki boshqa tilda mazkur so'zning aniq bir ekvivalenti bo'lmagan so'zlarning ifodasini nazarda tutadi¹¹. Darhaqiqat, bu bir mamlakat doirasida bo'lishi mumkin. O'zbekiston hududida shimoliy va janubiy viloyatlar orasida ham realiya hodisasi ro'y beradi.

V.G.Krupnova - narsa-predmet jarayon voqea-hodisalarning o'zga til tarjimasida mavjud bo'lmagan so'zlarning va so'z birikmalarining chet tilidagi ko'rinishidir" deb izohlaydi¹². Bu borada ko'pchilik olimlarning fikrlari o'xshash ekanligini kuzatishimiz mumkin.

L.I.Soboleva esa - realiyalar deganda, ma'lum so'z yoki atamaning boshqa davlat va millat tillarida mavjud bo'lmagan, ularni ayni bir so'z yoki tushuncha orqali ikkinchi tilga tarjima qilib bo'lmaydigan atamalar nomini nazarda tutadi¹³. Tilshunos va tarjimashunos olim G'.Salomov realiyalarni quyidagicha ta'riflaydi: "Milliy o'ziga xoslik deganda adabiy asarda tasvirlangan xalq hayotining moddiy hayot sharoiti, ma'naviy turmush tarzi,

¹⁰ Влохов С, Флорин С. Непереводимое в переводе. 1986. 416 с

¹¹ Федоров А.В. Искусство перевода и жизнь литературы. - Москва, 1983 54 с

¹² Qarang Xaitbayeva Nazokat Adilbekqizi To'raqulova Maxliyo G'ayrat qizi // "Realiya" va "Realiya va birlik" tushunchalar tavsifi. Vol. 1 No. 2 (2023): Ilmiy tadqiqotlar va jamiyat muammolari

¹³ Qarang Xaitbayeva Nazokat Adilbekqizi To'raqulova Maxliyo G'ayrat qizi // "Realiya" va "Realiya va birlik" tushunchalar tavsifi. Vol. 1 No. 2 (2023): Ilmiy tadqiqotlar va jamiyat muammolari

tabiati, o'rmoni, tog' hamda boshqa maxsus narsalar haqidagi tasavvurlari tushunchalari atamaları tushuniladi. Binobarin, Salomov "realiya" so'zini xos so'z deb berishni tavsiya qilgan¹⁴. Ayrim hollarda xos so'zlar realiya emas balki, termin ham deb yuritiladi.

R.Fayzullayevaning "Yo'llar yiroq, ko'ngillar yaqin" nomli maqolalar to'plamida¹⁵ realiyalarga har tomonlama to'g'ri keladigan ta'rif berildi. "Realiyalarga milliy taomlar, kiyim kechaklar, milliy cholg'u asboblari, ro'zg'or anjomlari, nomlar, taxalluslar, laqablar, shahar, qishloq xususiyatlari, me'morchilik, geografik nomlar, taxalluslar, laqablar, tabiat manzaralari, hayvon va o'simliklarning nomlari, daraja, unvon, tabaqa va boshqa bo'linishlarni ifodalovchi so'zlar muassasalar tashkilotlar diniy marosimlar va boshqa etnografik belgilarni bildiruvchi so'z va iboralar kiradi". Realিয়া asosan boshqa xalq madaniyati, tili bilan solishtirilganda yuzaga chiqadigan hodisa hisoblanadi. Milliy o'ziga xos so'zlar; pul birliklari, geografik joy nomlari, urf - odatlar, ismlar barcha barchasi realiya hisoblanadi. Realিয়া hodisasi yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlari asosan ingliz tiliga qiyoslanib olib borilgan.

1.2.Lingvomadaniy birliklarning o'ziga xos xususiyatlari

Lingvomadaniyatning qiziqish doirasiga ramziy ma'noga ega bo'lgan va madaniy ma'lumotlarni aks ettiruvchi har qanday til birliklari (frazeologik birliklar, metaforalar, maqollar va boshqalar) kiradi. Til madaniyatlarining milliy o'ziga xosligini o'rganish samaradorligini uchun ularga butun lingvomadaniy makonni shartli ravishda "ma'nolar nurlari" - tushunchalarga ajratuvchi kontseptsiya sohasi prizmasi orqali qarash mumkin.

Lingvomadaniy birliklar dastlab bitta semiotik tizimga - tilga tegishli bo'lmasligi, balki madaniyatning turli bo'limlarida: afsonalar, marosimlar, xurofotlar, stereotiplar, nutq hatti-harakatlarida va hokazolarda mujassam bo'lishi juda muhimdir. Terminologik tizim, bu uning ikkita tarkibiy fanlari -

¹⁴ Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. Toshkent. O'qituvchi 1978. 95- bet.

¹⁵ Qarang Nadjimxodjayev Ma'rufxodja Sunnatovich.// Realiiyaning tarjima qilishdagi murakkabliklari (yapon tili misolida) Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social science 2021.1069-bet

tilshunoslik va madaniyatshunoslik yig'indisi natijasi bo'lmaydi. Shuni e'tirof etish kerakki, tilshunoslarning terminologiya holati haqidagi umumiy tashvishi lingvokulturologiyani ham chetlab o'tmadi: uning kategoriyaviy apparatini tartibga solish va evolyutsiya qilish hali tugallanmagan. Asosiy tushunchalar ro'yxati va ularning sinonimiyasining nisbiy noaniqligining sababi, bizning fikrimizcha qisman tadqiqot predmetining noaniqligidir, chunki, yuqorida aytib o'tilganidek, lingvokulturologlarning diqqat-e'tibori ob'ekti - madaniy jihatdan belgilangan lingvistik birliklardir. Shu munosabat bilan shuni ta'kidlash kerakki, til birliklarining madaniy ma'nolar haqida maksimal ma'lumot olishimiz mumkin.

Turli madaniyat vakillari o'rtasida samarali muloqotni ta'minlash uchun til to'sig'ini bartaraf etish yetarli yechim emas. Milliy o'ziga xos rangga ega bo'lgan madaniyat tarkibiy qismlariga kamida quyidagilar kiradi: an'analar (yoki madaniyatning barqaror elementlari), shuningdek urf- odatlar va marosimlar. Ushbu tizimdagi an'analar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan kundalik madaniyat deb atashadi. Lingvomadaniy birliklar lakuna, ramz, metafora, realiyalarni o'z ichiga oladi. Ular haqida birma- bir toxtalib o'tamiz.

Turli tillardagi lisoniy birliklarni qiyoslab o'rganishda ko'pincha bir tildagi leksik birlikning ikkinchi bir tilning lug'at tarkibida ma'nodoshi mavjud emasligiga duch kelamiz. Bunday jarayon lakuna atamasi orqali izohlanadi. Lakunalar dunyoning barcha tillarida uchraydigan hodisadir. Bundan o'zbek tilshunosligi ham holi emas. Lakuna termini ilk bor kanadalik tilshunoslar J.P. Vine va J. Darbelnelar tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Bir tildagi so'z boshqa tilda muqobilini topa olmagan o'rinlarda har doim lakuna hodisasi voqelanadi¹⁶.

V.G. Gak lakunalarni "tilning leksik tizimidagi bo'shliqlar, bor bo'lishi kerakdek ko'ringan so'zlarning mavjud emasligi" deb tushuntiradi. Tadqiqotchi

¹⁶ Vinay J.P. Darbelnet J. Stylistique comparee du fraicais et de l'anglais. -Paris, 1958. -P. 10.

lakunalarni mazkur jamiyatda tushunchalarning mavjudligi, biroq ularni ifodalovchi soʻzlarning yoʻqligi, bunday tushunchalar uchun boshqa tilda alohida leksik ifodalarning mavjud boʻlishi deb hisoblaydi. Lakunalarga misol tariqasida fransuz tilida rus tiliga qiyosan *sutka* va *kipyatok* soʻzlarining mavjud emasligini keltiradi¹⁷.

Lakunalar madaniyatlararo muloqotda tillar va madaniyatlar oʻrtasidagi farqlarni koʻrsatib beruvchi muhim omil hisoblanadi. Lakunalar asosan, tillarning qiyosida seziladi. Masalan, *assalomu alaykum* leksemasi musulmonlar nutqida har safar tanish yoki notanish insonlar bilan duch kelganda aytiladigan salomlashuv soʻzi hisoblanadi (maʼnosi: sizga sihat-salomatlik tilayman). Ingliz tilidagi *good morning*, *good afternoon*, *good evening* soʻzlaridan farq qiladi. Bu soʻzlar *xayrli tong*, *xayrli kun*, *xayrli kech* soʻzlari bilan maʼnodosh hisoblanadi, lekin *assalomu alaykum* tarzida oʻgiriladi.

Shunday soʻzlar borki, baʼzida tarjima qilsak ham aslidek tarjima chiqmaydi. Yoki oʻsha maʼnoni oydinlashtirib berolmaydi. Bu esa tildagi boʻshliqni keltirib chiqaradi. Turli millat jamoalari vakillarining milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettiradigan lakunalar, subyektiv yoki milliy-psixologik lakunalar madaniyatlararo muloqot jarayonida ishtirokchilarning milliy-psixologik qarashlari bir-biriga mos kelmaganda yuzaga keladi. Xalqning turmush va hayot tarzi shunday tushunchalarni ifodalaydigan soʻzlarni vujudga keltiradiki, ular koʻpincha boshqa xalqlar tillarida mavjud boʻlmaydi. Natijada bunday xorijiy soʻzni ikkinchi bir tilda yagona soʻz bilan ifodalaydigan leksik ekvivalent mavjud emasligi aniqlanadi.

Milliy sport turi kurashni oladigan boʻlsak, undagi *kurash*, *chala*, *yonbosh*, *halol* soʻzlari boshqa soʻzlarga almashmasdan butun jahonga kirib bordi. Tarjimashunoslik sohasida soʻzlarning ekvivalenti topilmaslik holati oʻsha tilning mavqeyini ham birmuncha koʻtaradi. Negaki, shu maʼnoni ifodalash uchun bir

¹⁷Гак В.Г. Сравнительная типология французского и русского языков. -Л.: Просвещение. Ленингр. от-е, 1977. -С. 261.

soʻzdan emas, bir necha soʻz birikmalaridan foydalanishga toʻgʻri keladi.

Keltirilgan misollarning barchasini talaffuz qilayotgan boshqa millat aholisi oʻzi sezmagani holda til sistemasida mavjud boʻlmagan birliklardan, va til ichidagi lakunalardan foydalanadi. Negaki, ushbu soʻzlarni aslidek talaffuz qilmasa yaʼni tarjimadan foydalanilsa nutqiy noqulayliklarni keltirib chiqaradi.

Musulmon xalqlari hayotining ajralmas qismiga aylanib qolgan *halol*, *harom* soʻzlariga toʻxtaladigan boʻlsak, ushbu soʻzlar gʻayridinlar uchun tushunarsiz. Lugʻatlarda oʻzga tilga oʻgirilganda ham aynan shu maʼnoni yetkazib berolmaydi. Masalan, rus tilida *честый, чистый* maʼnolarini anglatadi, ingliz tilida esa *fair, just, honest* soʻzlari bilan ifodalanadi. Ularning baʼzilari *toza* soʻzi bilan, baʼzisi esa *vijdonan, insofli* maʼnolari bilan ifodalangan. Turli xalqlar madaniyatidagi tushunilishi qiyin boʻlgan lakunalar tarjima sohasidagi noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Lekin, tildagi lakunalarni bartaraf qilib boʻlmaydi. Ingliz urf-odatidagi *Halloween* soʻzining oʻzbek tilidagi muqobili yoʻq. Shuning uchun uni *hellouin* deb transliteratsiya vositasida oʻgirilgan.[Bu bayramning kelib chiqish tarixi xristianlikdan ham avvalga borib taqaladi, hamda koʻhna keltlarning afsonaviy bayrami hisoblanadi. Xuddi shunday holatni xalqimizning *Navroʻz* bayramida ham kuzatish mumkin.

Shunisi qiziqki, baʼzi iboralar borki ularni boshqa tillarga oʻgirish haqida umuman gap boʻlishi mumkin emas:

Oʻzim *oʻrgilay* bolaginam nima boʻldi?!

Onang *aylansin*, keldingmi?

Onang *qoqindiq* bolam, qayerlarda yuribsang?

Buving *girgitton*, koʻzim toʻrt boʻldi-ya,

Buving *oʻrgilsin*, ketyapsangmi?

Ushbu soʻzlar milliyligimizning yorqin namunasi hisoblanadi. Yuqoridagi misollardan koʻrinib turibdiki, tillarda lakunalar bor ekan, ular boshqa tildagi

tushunchalarni qo'llay olmaydilar, shunday holatda bir tildan ikkinchi til qarzga so'z oladi.

O'z navbatida so'z lakunalaridan farqli holatda harakat lakunalarini ham mavjud. Masalan, o'zbeklarda qo'lning musht qilib bosh barmog'ini ko'tarish holati "ishlar zo'r" degan ma'noni bildiradi. Koreyslarda esa hurmatini o'zidan yoshi yoki mavqeyi yuqorilarga boshni biroz egish bilan hurmat ko'rsatadi.

Xulosa qilib atganda, til jamiyat hayoti uning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jihatlari bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. Jamiyat taraqqiyoti bilan bir paytda uning tili ham yangi tushunchalar, yangi atamalar bilan boyib boradi. Har bir alohida olingan ijtimoiy tizim o'ziga xos taraqqiyot xususiyatlariga ega va ular to'xtovsiz ravishda tilning leksik tarkibida o'z ifodasini topadi. Muayyan bir til sistemasiga mansub bo'lgan, boshqa tillarlarda mavjud bo'lmagan o'ziga xos voqea va hodisalarni, predmet nomlarini, tushunchalarni ifodalovchi lisoniy birliklar ekvivalentsiz leksik (lakunalar, realiyalar, sotsiolegemalar.) deb yuritiladi. Ularni boshqa bir tilga tarjima qilishda transkripsiya, yarim kalka, kalka, usullaridan foydalanilgan holda muallif maqsadini oydinlashtirish uchun matn ichi va matn osti izohlaridan foydalaniladi. Hozirgi zamon tilshunosligida ekvivalentsiz leksika yoki lakuna tushunchasi u yoki bu til va madaniyatga mansub bo'lgan verbal yoki noverbal ifodalanadigan tushuncha, boshqa madaniyatlarda ifodalanmaydigan lisoniy vositalar, variantlar, invariantlari sifatida talqin qilinadi. Har bir millat undagi urf odatlar yashar ekan lakunalar ham yuzaga kelaveradi. Marosim udum nomlari yangilangan sayin tildagi bo'shliqlar, chuqurchalar soni ortaveradi.

1.3.Realiya – muhim lingvomadaniy birlik

Dunyo tilshunosligida tilni undan foydalanuvchi shaxs va uning o'ziga xos milliy va ma'naviy olami hayot tarzi bilan bog'lab o'rganishga alohida e'tibor qaratilyapti. Til tadqiqiga shu xildagi yondashuvlar natijasida XX asr o'rtalarida tilshunoslikning tadqiq yo'nalishlari kengayib, etnolingvistika,

lingvokulturologiya, sotsiolingvistika, antroposentrik tahlil kabi tilshunoslikning yangi sohalari maydonga keldi va tilning inson olami bilan bog'liq bo'lgan yangi jihatlarini ochib berish imkoniyatlari yaratildi. Natijada til va shu tilda so'zlashuvchi xalqning tarixiy taraqqiyoti, turmush tarzi, kundalik hayoti davomida shakllangan an'anaviy madaniyati, ma'naviy olamini uzviy aloqadorlikda o'rganish tilshunoslikdagi muhim masalalardan biriga aylanib bormoqda¹⁸. Tilshunoslik sohasida adabiy til, standart tilning ahamiyati hamda shevalarning o'sha til mavqeyida tutgan o'rni har bir davlatda turlicha talqin qilinaydi.

Adabiy til umumxalq tilining yozuvchi shoir so'z ustalari tomonidan ishlangan, sayqal berilgan, grammatik qonun-qoidalariga rioya qilinadigan, ma'lum me'yorga solingan, umummajburiy va qonuniy to'g'ri qo'llanadigan, xalqning turli madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi tildir. Adabiy til jamiyatning ilm-fan, ta'lim, adabiyot, diplomatiya, huquqshunoslik, ish yuritish, turli tashkilotlar va ziyolilarning kundalik hayotida ishlatiladigan milliy til ko'rinishidir. Adabiy tilga muomala jarayonida qo'llanadigan shevaga, so'zlashuvga xos bo'lgan so'zlarning ishlatilmasligi xosdir. Norasmiy nutq modeli hisoblangan dialektlar hududiy va ijtimoiy turlarga bo'linadi. Hududiy dialektlar ma'lum hududning o'zigagina xos hududiy belgilari, binobarin, o'ziga xos lug'at, grammatik yoki fonetik xususiyatlariga ega bo'lgan so'zlashuv tilidir. Adabiy tilga e'tibor qaratib ba'zan shevalarni unutib qo'yamiz. Aslida jamiyatda adabiy tilning ham shevaning ham o'rni bo'lish lozim. Sheva o'zida tarixiy xotirani madaniy ko'nikmalarni va lug'at boyligini saqlaydi. Shu jumladan adabiy tilni boyitib turgan milliy xos so'zlar ham muhim ahamiyatga ega. Ularga misol qilib realiyalarni keltirish mumkin. Realialarning muayyan koloritni aks ettirish xususiyatlari to'g'risida XX asrning 50-yillarida tilshunoslar bahs yuritib boshladi. Bu borada bir to'xtamga kelish ancha

¹⁸ Kurbanazarova N.SH. Surxondaryo vohasi to'y marosimi etnografizmlarining semantik tabiati va lingvomadaniy tadqiqi. Fil.fan.bo'yicha fals.dok.diss. – Termiz, 2021. – B. 39.

murakkab jarayonni tashkil etdi. Buning asosiy sababi, o'sha bahs yuritayotgan tadqiqotchilarning ishlarida mazkur masalaning haqiqiy mohiyati diqqat markazda bo'lgan emas edi. Mavjud ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish natijasida realiyalarga baho berish bo'yicha bu borada ikki xil qarash borligini ko'rish mumkin. Ular:

- tarjima nuqtai nazaridan qarash;
- mamlakatshunoslik asnosida yondoshish.

Ushbu tadqiqotda biz ikkinchi yo'nalish tomondan ko'rib chiqamiz. Ba'zi olimlar realiyaga ta'rif berishda to'liq bo'lmagan yoki mavhum xulosalarni beradilar. Mazkur til birliklarining faqat bir tomonini yoritib beriladi. Shu bois mazkur tushunchaga munosabat bildirishdan oldin avvalgi ta'riflarni bir ko'zdan kechirish lozim.

Jumladan, M.L.Vaysburd realiyaga mamlakatshunoslik asnosida yondoshadi va bu haqda quyidagi fikrlarni aytadi:

Bu muayyan mamlakat ijtimoiy va madaniy hayoti voqealari, ijtimoiy korxonalar yoki tashkilotlarning nomlari, kundalik buyum nomlari, tarixiy shaxslar nomlari va yana boshqa ko'plab narsalar nomlaridan iborat¹⁹.

Ushbu fikr realiya masalasini yanada jiddiyroq o'ylab ko'rish kerakligini anglatadi. Bunda uning lingvistik terminologiya sifatida ko'rinishini aniqlab olish zarurati bor.

Rus olimasi L.N.Sobolevaning fikriga ko'ra, realiyalar - maxsus xususiyatga ega bo'lgan, bir tilda va boshqa mamlakatlardagi tillar muhitida boshqa ekvivalentlari bo'lmagan milliy so'z va so'z birikmalaridir²⁰. Lekin bunday qarashda mamlakat hayotidagi turli o'zgarishlar, taraqqiyot bosqichlari bo'lishi hamda bir mamlakatda keng tarqalgan narsa, boshqasida unday bo'lmasligi, shuningdek, bunday xil so'zlarning tillararo bir-biriga o'tib turishi mumkinligi e'tibordan chetda qolgan. Bunga misol tariqasida sobiq ittifoq davrida paydo

¹⁹ Vaysburd M. Realities as an element of regional studies/ M.L Weissburd / Russian abroad - 1972. 235 c

²⁰ Соболев Л.Н. Пособие по переводу с русского языка на французский. - М., 1952. 109 c

²⁰ Россельс В.М. Реалия. Краткая литературная энциклопедия. - Москва, 1971 69 c

bo'lgan *sputnik* so'zini keltirishimiz mumkin. Ushbu leksema aslida sobiq ittifoq davrida paydo bo'lgan. Chunki dunyo bo'yicha dastlab aynan shu davlatda mazkur ish amalga oshirilgan. Muayyan so'zning realiya tarzida paydo bo'lishi, avvalo, o'sha realiya yaratilgan hudud, mamlakat, millat, elat bilan bog'liq bo'lishini ham nazardan qochirmaslik kerak. O'sha narsaning qanday ahamiyat kasb etishi bilan u boshqa mamlakatlarga, balki dunyo bo'ylab tarqalib ketishi ham ehtimoldan yiroq emas. Taniqli tarjimashunos olim V.M.Rosselsning ta'kidlashicha, realiyalar – tarjima qilinayotgan tilga kirib kelgan va asliyat tilida muayyan milliy, mahalliy narsa va predmet yoki tushunchalarning nomini ifodalaydigan so'zlar hisoblanadi²¹. Masalan, milliy taomlar, kiyim-kechaklar, milliy cholg'u asboblari, ro'zg'or anjomlari, nomlar, taxalluslar, laqablar, shahar va qishloqqa xos xususiyatlar, me'morchilik, geografik nomlar, tabiat manzaralari, hayvon va o'simliklarning nomlari, daraja, unvon, tabaqa va boshqa etnografik belgilarni bildiruvchi so'z va iboralar kiradi. Realiyalar tasnifi bo'yicha dastlab nisbatan aniq variantni S.Vlaxov va S.Florinlar berishgan. Quyida ularning bu boradagi tadqiqotlarida bu haqda berilgan fikrlarni keltiramiz. Ular realiyalarni dastlab ashyoviy bo'linishiga e'tibor qaratadilar.

Geografik realiyalar

- a) Geografik obyektlarning nomlari, jumladan meteorologiya ham;
- b) Inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan geografik obyektlar nomlari
- c) Endemiklar (o'simlik va hayvonlarning nomlari);

Etnografik realiyalar:

Maishiy hayotda:

- a) ovqat va ichimliklar;
- b) kiyim-kechak;
- c) uy-joy, mebel, idish-tovoq;

Mehnat:

²¹Россельс В.М. Реалия. Краткая литературная энциклопедия. – Москва, 1971. 70 с



a) mehnat qurollari;

Madaniyat va san'at:

a) musiqa va raqs nomlari;

b) musiqa asboblari;

v) folklor;

Urf-odatlar;

a) bayramlar, o'yinlar;

b) mifologiya;

c) irim-sirimlar nomlari;

Etnik obyektlar:

a) etnonimlar;

b) laqab, taxalluslar;

c) shaxslarning yashash joylari bo'yicha nomlari;

O'lchov va pul birliklari.

a) O'lchov birliklari;

b) Pul birliklari;

Ijtimoiy - siyosiy realiyalar.

a) Ma'muriy-hududiy birliklar;

b) Aholi yashash joylari;

v) Aholi yashash joylarining qismlari;

Ijtimoiy-siyosiy hayot;

a) unvon, daraja va boshqalar;

b) korxonalar;

c) O'quv yurtlari va madaniyat o'choqlari;

d) tabaqa va kastalar;

f) kelib chiqishni ifodalaydigan belgi va tumorlar;

Harbiy realiyalar:

a) Harbiy qismlar;

b) Harbiy qurollar;

v) Harbiy xizmat qiluvchilar;

Hududiy bo'linish.

1) Bir til doirasida:

a) Muayyan xalqqa, millatgagina tegishli bo'lib, boshqa mamlakatlarga notanish bo'lgan – milliy realiyalar;

b) Muayyan millat yoki xalqning faqat bir qismi, hududiy lahjasiga yoki kichikroq elatiga, urug'iga mansub bo'lgan lokal (kichik hududiy) realiyalar;

c) Faqatgina birgina shahar yoki qishloqqagina xos bo'lgan va ularninggina ijtimoiy va madaniy xususiyatini ifodalaydigan mikrolokal realiyalar;

2. Notanish realiyalar – o'zlashma so'zlar yohud boshqa tillardan transkriptsiya qilingan realiyalar:

a) Internatsional (baynalmilal) realiyalar – ko'pchilik tillarning leksikasida mavjud va muayyash lug'atlarga ham kiritilgan. Ular odatda o'zlarining milliy bo'yoqlarini saqlab turadilar;

b) Hududiy – bir hudud, mamlakat chegarasidan chiqib, bir necha mamlakatlarga tarqab ketgan (qo'shni mamlakatlarga bo'lishi shart emas) realiyalar. Ular bir necha xalqlarning ham lug'at xazinasidan o'rin olib ulgurganlar;

Bir juft tillar doirasidagi realiyalar – tarjima nuqtai nazaridan qaraganda:

1. Tashqi realiyalar – har ikki tilga ham bir xil ravishda yot bo'lgan;

2. Ichki realiyalar – har ikki tilning birigagina taalluqli bo'lgan va ikkinchisiga yot bo'lgan; Bu yerda shuni ta'kidlash lozimki, realiyalarni turli qismlarga bo'lish nisbiy hisoblanish hollari nazarda tutiladi.

Davriy bo'linish :

A. Zamonaviy

B. Tarixiy

Zamonaviy va tarixiy realiyalarga bo'linadi. Zamonaviy realiyalar

epizodik xarakterga ega bo'lib birdagina keng ommaning e'tiborini o'ziga tortadi. Ammo tez orada unutiladi. Epizodik realiyalarni lug'atdan tashqari realiyalar hisoblanadi. Asar mualliflari yoki tarjimonlar ularni turli kontekst taqazosi bilan matnlarga bir yoki bir necha marotaba kiritadi. Bir so'z bilan aytganda epizodik realiyalar tildan mustahkam o'rin egallamaydi.

Bolgar olimlari S.Vlaxov va S.Florinlarning realiyalarga bergan tasniflari bir qator prinsiplarga asoslanadi²². Ular realiyalarni tasniflashda nafaqat mavzuiy (tematik) yondoshgan, balki hududiy (bir yoki bir necha til doirasida) bo'linishga ham alohida ahamiyat bergan. Shuningdek, ular davriy bo'linish prinsipiga ham amal qilgan.

Yuqoridagi klassifikatsiyada qo'llanilgan prinsiplarga amal qilgan holda yana bir olim V.N. Krupnov milliy bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlarni tasnif qilishni taklif qilgan. Uning tavsiya qilgan klassifikatsiyasi yuqoridagi tasnif bilan deyarli bir xil. Faqatgina bu olim reklama realiyalarini ham kiritgan²³. Uning ta'kidlashicha, *reklama tili* degan tushuncha bejiz paydo bo'lmagan deydi

V.S.Vinogradov tomonidan tavsiya qilingan tasnifda muayyan mamlakatning tarixi, davlat tuzulishi va milliy-madaniy o'ziga xosligi, geografik xususiyatlari, bugungi va o'tmishdagi urf-odatlar va an'analarga xos jihatlar, etnografiya va folklor va boshqa tomonlarga alohida ahamiyat qaratiladi²⁴.

Bu olim realiyalarni *tematik* jihatdan tasnifiy guruhlarga ajratadi.

1. Maishiy realiya deb nomlanuvchi so'zlar.

- a) Uy-joy jihozlari;
- b) Kiyim-kechaklar;
- v) Ovqat va ichimliklar;
- g) Mehnat va mashg'ulot turlari;
- d) Pul va o'lchov birliklari;
- e) Musiqa asboblari, xalq raqs va qo'shiqlari

²² Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. М.:Международные отношения, 1986. 329 с

²³ Крупнов В.Н. В творческой лаборатории переводчика. – Москва, 1976.188 с

²⁴ Виноградов В.С. Лексические вопросы перевода художественной прозы. – Москва, 1978. 174 с

j) Milliy bayramlar, o'yinlar;

z) Murojaatlar;

2. Etnografik va mifologik realiyalar leksikasi.

a) Etnik va sotsial hamjamiyatlar va ularning vakillari;

b) Afsonaviy va ertakka xos mavjudotlar;

3. Tabiat olami realiyalari leksikasi.

a) Hayvonlar;

b) O'simliklar;

v) Landshaft, peyzaj.

4. Davlatning ma'muriy tuzulishi va ijtimoiy hayotiga oid realiyalar leksikasi (zamonaviy va tarixiy).

a) Ma'muriy birliklar va davlat institutlari;

b) Ijtimoiy tashkilotlar va partiyalar, ularning ishtirokchilari;

v) Sanoat va agrar hamda savdo tashkilotlari;

g) Asosiy harbiy va politsiya tuzulmalari va uning qo'mondonligi;

d) Fuqarolik mansablari va kasblari, unvonlar va darajalar;

5. Onomastik realiyalarni ifodalovchi leksika.

a) Antroponimlar;

b) Toponimlar;

v) Adabiy qahramonlarning ismlari;

g) Muzey, kompaniya, teatr, restoran, do'kon, plyaj, aeroportlarning nomlari va boshqalar.

6. Assotsiativ realiyalarni ifodalovchi leksika.

a) Vegetativ ramzlar

b) Animalistik ramzlar (masalan, kabure – sehrli quvvatga ega bo'lgan afsonaviy yirtqich qush);

v) Rang ramzlari

– yashil – umid ramzi, kelajak ramzi (Panama va Chilida);

– sariq – motam rangi (o'rta asrlardagi Ispaniyada);

g) Folklor, tarixiy va adabiy-kitobiy allyuziyalar. Ularda tarixiy, adabiy va folklor qahramonlarining hayotiy obrazi, odobi, xarakter xususiyatlari va boshqa jihatlar aks etgan bo'ladi.

D) Lisoniy allyuziyalar. Ular orqali muayyan frazeologizm, maqol, matal.

Assotsiativ realiyalar tildagi turli xil milliy va tarixiy-madaniy o'ziga xosliklar bilan bog'liqdirlar. Bunday realiyalar maxsus so'zliklarda, muqobilsiz leksikalar qatoridan topib bo'lmaydi. Jumladan rang ramzlarni ana shunday realiyalar qatoriga kiritish mumkin. Jumladan rus tilshunosi G.D.Tomaxin bu kabi realiyalarni konnotativ realiyalar qatoriga kiritadi. Unga ko'ra bu kabi realiyalar bir paytning o'zida muayyan ramzlarni bildirishlari bilan o'ziga xos emotsional-ekspressiv xususiyatlarga ham ega bo'ladilar.

Yuqoridagi olimlarning realiyalarni tematik guruhlariga ajratishlari o'z tadqiqot obyektlariga nisbatan qaraganda to'g'ri bo'lishi mumkin. Ammo ularni aynan o'zbek voqeligi, o'zbek lingvomadaniyatshunosligidagi realiyalarga nisbatan aynan qo'llab bo'lmaydi. Shu bois bizdagi voqelik, milliy va maishiy xoslik asosida quyidagi tasnifni keltirish mumkin:

1. Xalqning moddiy tirikchilik sharoiti, kundalik hayotidandan olingan xos so'zlar va ularni tarjima qilish xususiyatlari: paxta, g'o'za, yagana, o'toq, pilla, , juvoz yog'i, jo'xori; yetti xazina: qovoq, turp, sabzi, piyoz, sholg'om, mosh, lavlagi, loviya va hokazolar. Ushbu leksemalar har bir xalq hayotida turli nomlar bilan ifodalanadi

2. Moddiy tirikchilik sharoitidan olinib, *majoziy ma'noda* ishlatiladigan xos so'zlar tarjimasining xususiyatlari: paxtaday oppoq, paxtaday yumshoq, joni paxtaday, qo'yday bezabon; ko'zi charosday - ko'zi qorag'atday - ko'zi sigirday; musichaday beozor - sigirday beozor (koreys); ohuday qiz - mazkur so'zlarda metaforalar yaqqol ko'zga tashlanadi.

3. Tarjimada kishi nomlari va laqablarining berilishi: Ilya - Ilyos, Solomon - Sulaymon, Avraam - Ibrohim, Iisus - Iso (Masih), Kain - Qobil, Adam - Odam Ato, Yeva - Momo Havo, Aristotel - Arastu, Platon - Aflotun, Sokrat - Suqrot,

Galen – Jolinus, Gippokrat – Buqrot, Ibn Sino – Avisenna kabi ismlarning asli kelib chiqishi keltirilgan

“Badiiy ijod vakillari ba’zan o‘z personajlarini shunday ismlar bilan ataydilarki, bu nomlar o‘sha personajlar xususiyatini o‘zida mujassamlashtirganlari sababli “gapiruvchi nomlar” deb ham ataladilar”. Masalan, “Qutlug‘ qon”da –Tantiboyvachcha, “Tobutdan tovush”da – Zargarov, “Sudxo‘rning o‘limi”da – Qori ishkamba va “Otamdan qolgan dalalar”da – Dehqonqul va hokazo. Bunday nomlarning transliteratsiya qilinishi muallif maqsadining ro‘yobga chiqishiga yo‘l qo‘ymaydi. Asarning tub mohiyatini ochib berishga to‘siq bo‘lishi mumkin.

4. Diniy istilohlar, tushunchalar, marosimlarning tarjimada berilishi: Qur‘on – Kalomulloh, ramazon – ro‘za tutiladigan oy, saharlik, iftorlik, g‘usl – cho‘milish, namoz – ibodat, bomdod, peshin, asr, shom, xufton, faqih – sudya, azon aytish – nomozga chaqirish hokazo.

5. Jug‘rofiy nomlar: Dashti Qipchoq, Sayhun – Sirdaryo, Jayhun – Amudaryo, Samarqand – Maroqand, Qoradaryo

6. Pul birliklari : so‘m, tanga,

7. O‘lchov birliklari: kilometr, chaqirim, qadam, qadoq, botmon, kilogram, gaz, sarjin, qarich, tirsak.

8. Taom nomlari: palov, chalob, pirog, somsa, kotlet, sho‘rdanak, shovla, sho‘rva.

9. Cholg‘u asboblari va musiqiy atamalar tarjimasi: doira, nay, qo‘shnay, karnay, surnay, chang, gitara, barbat, ud.

Lapar, katta ashula, shashmaqom, xirgoyi.

Tansevat – raqsga tushish, tansevat – tansa tushish.

10. Kiyim-kechaklar nomi: to‘n, do‘ppi, qiyiqcha, kuloh, guppi, nimcha; charm to‘n, xalat, guppi, kuloh, to‘n.

11. Adabiy terminlar tarjimasi: ruboiy, g‘azal, tuyuq, fard, qasida,

marsiya, oq she'r, barmoq vazni, aruz, devon, o'lan, majmua, tazkira, o'lan, g'azal, devon, yor-yor, terma, yallama-yorim, omonyor.

12. Xalqaro tashkilotlar, yirik uyushmalar, firmalar, trest nomlari tarjimasi: Qizil yarimoy.

13. Gazeta va jurnal nomlari tarjimasi: "Xalq so'zi", "Turkiston viloyatining gazetasi", "Turkiston", "O'zbekiston ovozi", "Mushtum", "Gulxan"

14. Toponimlar tarjimasi: Bangilar, Sassiqa hovuz, Ko'kcha, Beshkent, Qiziltepa, Beshariq, Oltiariq, Uchariq. Masalan, "Boburnoma"ning inglizcha tarjimasida "Kamrud" so'zini - ("qaqroq yo'l") deb olingan.

15. Urf-odat, rasm-rusum, an'ana va marosimlar tarjimasi: aqiqa, beshik to'yi, qizlar majlisi, mavlud, Bibi seshanba, iftorlik, is chiqarish, xatmi Qur'on, charlar, maslahat oshi, chimildiq, xudoyi, tog'ora qilish, to'qqiz tovoq, idishni quruq qaytarmaslik, padaroshi, janoza, shom oshi, yigirma, yil, hayit, arafa.

16. Asarlarning nomlari tarjimasi: Bibliya - Bibliya, Yevangeliya - Injil, Plastir - Haftiyak, Bukvar - Alifbo, "Obon" - "Kuy" - "Jamila", "Tronka" - "Hayot navosi", "Plaxa" - "Qiyomat", "Sestra Kerri" - "Baxtiqaro Kerri", "Yulduzli tunlar" - "Babur", "Dekameron" - "Dekameron".

17. Uy jihozlari : sandal, taxmon, pech, xontaxta, javon, sham.

18. Mehnat qurollari: o'roq, ketmon, omoch, choriq, panshaxa, g'alvir, tegirmon, do'l, duk, charx, arava, qop, qanor, paytava. Masalan, "Boburnoma"ning inglizcha tarjimasida "ketmon" - "belkurak" deb berilgan.

19. Oshxona anjomlari: o'qlov, rapida, tandir, o'choq, hovoncha, nonpar, elak, tog'ora, guppi.

20. Qush, hayvon va hasharotlar nomi: qo'y, fil, tuya, delfin, timsoh, boyo'g'li, bulbul, qarg'a, suvarak, chivin, pashsha, chumchuq, beshiktebratar, echki, ari, asalari, qaldirg'och, musicha, bedana, sassiqpopishak, chug'urchiq, ilon, tipratikan, qurbaqa, ot, it, eshak, mushuk, sichqon, chayon, yumronqoziq, kaltakesak. Masalan, "Boburnoma"ning inglizcha tarjimasida "oq kiyik"ni - "beliy zver" ("oq hayvon") deb berilgan va bu qandaydir g'alizlikni keltirib

chiqargan. Chunki oq hayvon boshqa turdagi hayvon bo'lishi ham mumkin.

21. Mevalar nomi tarjimasida: o'rik, olxo'ri, qovun, tarvuz, uzum, nok, rediska, anjir, anor, behi, olma, gilos, olcha, jiyda, do'lana, ravoch, yong'oq, bodom, qovoq, lavlagi, turp, arpabodiyon, banan, tut, qulupnay. Masalan, "Boburnoma"ning inglizcha tarjimasida "olma"ni - "behi", "nashvati"ni - "qovunning bir navi", "mehrigrayoh"ni - "mandragora" ("zaharli o't") deb berilgan. Tarjimalar ko'p hollarda ko'zlangan natijani bermaydi

22. Daraxtlar va gullar nomi: gultojixo'roz, rayhon, jambil, atirgul, gulbeor, majnuntol, tol, sada, gujum, akatsiya, ar-ar, dub, palma, chakalak, sarv, shamshod²⁵ kabi tur va guruhlariga bo'linadi.

Yuqoridagi leksemalar bir xalqqa xos milliy so'zlar hisoblanadi. Har bir xalqning ajralmas qismiga aylangan. Milliy taom nomlarini eshitishimiz bilan ba'zida o'sha millat ko'z oldimizga keladi. Masalan;

Palov - o'zbek millatining milliy taomi hisoblanib deyarli barcha davlatlarda o'zbek restoranlarida tayyorlanadi.

²⁵ Qarang Hamidov, X. X Tarjimashunoslik ma'ruza matni, Toshkent - 2012 62-bet <http://library.navoiy-uni.uz/files/tarjimashunoslik.pdf>

Bob bo'yicha xulosalar

Mazkur bobda lingvokulturologiya fani yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar, muqobilsiz leksika haqida, lingvomadaniy birliklar o'ziga xos xususiyatlari, lakunaning ahamiyati hamda tilshunoslikda realiyaning ahamiyati haqida so'z borgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki,

I bob lingvokulturologiya sohasida milliy o'ziga xos so'zlarni ifodalab kelayotgan reliyalarni tasniflab ko'rsatishdan iborat. O'zbek tilshunosligida tilni o'zbek xalqining urf-odatlari, tarixiy an'analari va ma'naviy olami bilan bog'liq ravishda o'rganishga bo'lgan qiziqish kuchayib bormoqda. Hozirgi zamon tilshunosligida milliy xos so'zlar tushunchasi u yoki bu til va madaniyatga mansub bo'lgan verbal yoki noverbal ifodalanadigan tushuncha, boshqa madaniyatlarda ifodalanmaydigan lisoniy vositalar, variantlar, invariantlari sifatida talqin qilinadi. Har bir millat undagi urf odatlar yashar ekan realiyalar ham yuzaga kelaveradi. Marosim udum nomlari yangilangan sayin tilda realiyalar soni ortaveradi.

II BOB. O'ZBEK LINGVODANIYATIDA MILLIY REALIYANI HOSIL QILUVCHI VA IFODALOVCHI BIRLIKLAR

2.1 Milliy realiya va ramz

Milliy realiyalar va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritar ekanmiz, o'zbek madaniyati va san'ati bilan bog'liq bo'lgan: karnay-surnay, baxshi, tanovar, shoshmaqom, omonyor, lapar, yor-yor kabi realiyalarni ham aytib o'tish joiz, chunki ular o'zbek xalqining xursandchiligi, o'yin-kulgusi bilan bog'liq bo'lib, o'zbek to'ylari aynan karnay-surnaylar-u milliy laparlar, tanovor -u yor-yorlarsiz o'tmaydi. Realiiylalar turlicha voqealanishi mumkin. Boshqa millat aholisi uchun o'zbek xalqining milliy urf-odatlarl, milliy taomlarl, millatga xos so'zlarnl barchasl realiya bo'lib xizmat qiladi. Hududiy jihatdan olib qaraganda viloyatlar o'rtasida ham ushbu hodisa voqealanadi. Adabiy til va shevalar o'rtasida realiyani kuzatishimiz mumkin.

O'zbek realiyalari orasida shunday realiyalar borki, ular xalqimizning chuqur tarixi, boy madaniy me'rosi, urf-odatlarl, an'analari bilan bog'liqdir. Bu an'analr yillar o'tsada ajdoddan avlodga o'tib kelmoqda. To'ylar bilan bog'liq sabzi to'g'rar, quloq tishlash, non sindirish, mushkul-kushod, yuz ochdi, kuyov chiqdi, kuyov o'tirmadi kabi marosimlarl bildiruvchi realiyalar ham mavjud. O'zbeklarimizda bir-biriga murojaat qiluvchi hech bir millatda uchramaydigan: qoqindiq, o'rgilay, aylanay, bibi kabi so'zlar ham mavjud bo'lib, ular hozirgi zamonaviy tilda xonim, janob, kabi ko'rinishda uchraydi.

Adabiy tilda realiyalar alohida ahamiyat kasb etadi. Realiiylarning umummilliy til dealektlarida paydo bo'lishi, adabiy tilda qo'llanilishi muayyan xalqning o'ziga xosligining muhim belgisi bo'lib, boshqa xalqlardan urf-odatlarl

va ularning ifodalanishi jihatidan farqlab turuvchi asosiy. Shuning uchun ham milliy xoslikni ifodalovchi til vositalarini tavsiflash tilshunoslikning asosiy masalalaridan hisoblanadi.

Tilshunoslik ilmlarini o'rganishda tillararo aloqaning alohida o'rni bor. Bunda boshqa bir xalq tili va madaniyatiga oid bo'lgan so'zlarning ma'nosini to'g'ri tushunish muhim. Chunki, ma'lum bir so'z boshqa tilda o'zgacha ma'no-mazmun ifodalashi, yoki umuman mavjud bo'lmasligi mumkin. Realiyalar lingvokulturologiyaning muhim tadqiqot ob'yekti hisoblanadi. Ular milliy koloritning muhim omili bo'lganliklari uchun ham tarjimada doimo dolzarblik kasb etadilar. Realiyalarni bir tildan ikkinchi bir tilga tarjima qilishdan avval ularning tarkibini, xususiyatlari va tasnifini yaratish muhimdir. Realiyalarni boshqa muqobilsiz leksikalardan farqlamoq lozim. Zero bu jihat ular tarjimasida muhim o'rin tutadi. Bu tarjima jarayonida o'ziga xos qiyinchiliklar tug'diradi. Bunday so'zlar tilshunoslikda *lakunalar* deb yuritiladi.

Lakuna lingvomadaniy birliklar orasida muqobilsiz leksikaning eng yorqin misoli bo'lib, unda milliy madaniyat elementlari namoyon bo'ladi. Bunday so'zlar, odatda, boshqa tillarga tarjima qilinmaydi. Lakuna ifodalaydigan tushunchalar tarjima qilinayotgan tilda mavjud bo'lmaganidan, o'zga tillarda muqobiliga ega emas: bu lingvomadaniy jarayonning tabiiy qonuniyatidir²⁶.

Lakunalarining asosiy qismi milliy o'ziga xos so'zlar bo'lib, bunday so'zlar lingvomadaniy *realiyalar* deyiladi. Milliy realiyalar – bu muayyan xalqning hayoti, turmushi, madaniyati, ijtimoiy–tarixiy taraqqiyoti uchun xarakterli bo'lgan predmetlar, hodisalar va obyektlarni nomlovchi, boshqa xalqlar uchun unchalik tanish bo'lmagan yoki begona bo'lgan, ularning tillarida aniq muqobili bo'lmagan, milliy koloritini ifodalovchi so'zlar yoki so'z birikmalari; muqobilsiz leksika turlaridan biri²⁷.

Milliy taomlar, kiyim–kechaklar, milliy cholg'u asboblari, ro'zg'or

²⁶ Kurbanazarova N.SH. Surxondaryo vohasi to'y marosimi etnografizmlarining semantik tabiati va lingvomadaniy tadqiqi. Fil.fan.bo'yicha fals.dok.diss. – Termiz, 2021. – B. 39.

²⁷ Худойбергано́ва Дурдона. Лингвокультуро́логия терми́нларининг қисқача изоҳли луғати. – т.: "Турон замин зиё", 2015. –32 б.

anjomlari, nomlar, taxalluslar, laqablar, shahar va qishloqqa xos xususiyatlar, me'morchilik, geografik nomlar, tabiat manzaralari, hayvon va o'simliklarning nomlari, daraja, unvon, tabaqa va boshqa etnografik belgilarni bildiruvchi so'z va iboralar realiyaning asosini tashkil etadi. O'zbek milliy lingvomadaniyatidagi milliy realiya ko'rinishlari boshqa dunyo xalqlari madaniyati va milliyligidan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. O'zbekiston xalqini turli millat va elat vakillari tashkil etadi. Ular bir hududda ko'p asrlardan buyon yonma-yon yashab, qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan bo'lsalarda, o'ziga xos urf-odat va marosimlari bilan farqlanadilar. Xususan, respublikamizning qadim Surxondaryo vohasi o'zining etnografik makon ekanligi, aholisining o'ziga xos madaniyati, urf-odatlari, marosimlari bilan boshqa hududlardan farqlanadi.

Areal jihatdan Surxondaryo vohasiga xos bir qancha leksemalarni realiya sifatida ajratdik va qisqacha izohlashga harakat qildik:

Ayollar kiyimi:

Kurta – yoshi katta momolar kiyim ustidan boshiga tashlab qo'yiladigan yoping'ich.

Qasaba – bosh kiyim hisoblanib ro'mol tagidan kiyiladi. Surxondaryoning chekka qishloqlarida asosan sakson to'qson yoshli momolar foydalanishadi.

Erkaklar kiyimi:

Do'ppi – (o'zbeklar bosh kiyimi; Avra-astarli, ko'pincha qavima, pilta urilgan, tepa, kizak va jiyakdan tarkib topadigan guldor yoki gulsiz, to'garak yoki to'rtburchak shakldagi bosh kiyimi. Baxmal do'ppi, gilam do'ppi, boysuni do'ppi. *Qayga borsam boshda do'ppim, g'oz yurarman gerdayib*²⁸.

To'n – astarli paxta solib qo'l mehnati bilan qaviladigan, qish mavsumi uchun mo'ljallangan ustki milliy kiyim. Hozirgi vaqtda ma'nosi torayib beqasam, adrasdan tikiladigan astarli erkaklar kiyadigan milliy ustki kiyimni ifodalaydi.

Belbog' – ushbu realiya nafaqat Surxondaryo balki butun o'zbek xalqi uchun milliy libos hisoblanib, to'rtburchak shaklidagi chetlari tikilgan gulli yoki gulsiz

²⁸ ErkinVohidov. O'zbekiston qasidasi.

mato parchasi. *Belida belbog'i bor* iborasi yigit kishining mard bir so'zli ekanligiga nisbat berilgan.)

Taom nomlari: yupqa, umoch osh, qatlama, o'vuz suti, kubi yog', ko'mma, shulla, chalpak, go'ja osh.

Faoliyat nomi: urchuq (paxtadan qo'l mehnatida ip yigirish uchun ishlatiladi. Bu iplardan gilam to'qilgan)

Gilam nomlari: taqir, qoqma, taroqi, chumchuq ko'z, qo'zi tish, sabov siqma, yulduzcha (ushbu gilamlar Surxondaryoda qo'l mehnatida to'qilib xalq orasida to'qima gilam, qoqma gilam nomlari bilan ataladi)

Nikoh turlari: *levirat* (marhumning ayoliga marhumning akasi yoki ukasining uylanishi), *sororat* (marhumaning eriga marhumaning opasi yoki singlisining turmushga chiqishi), *voy-voy nikoh*, (qizning roziligisiz turmushga berilib, nikoh jarayonida qiz rozilik bildiravermasa yangalari yoki boshqa qarindoshlari chimchilab olishgan shunda qizning "voy" degan ovozi rozilik alomati sifatida olingan), *ichkuyov* (urf-odatga ko'ra kelin emas balki kuyovning kelin uyiga ko'chib kelishi. Bunday hollarda kelin tomon qalin puli olmagan.) va hokazolarni keltirish mumkin.

Marosim nomlari: *kelin salom, kuyov chaqirdi, yuz ochar, qalin berish, fotiha to'yi, supra qoqdi, muchal to'yi, beshik kerti, soch siypatar* kabi bir qancha urf- odatlarimiz mavjud bo'lib, nafaqat boshqa xalqlar uchun balki boshqa viloyat aholisi uchun ham realiya voqelanadi.

Realianing muhim xususiyati shundan iboratki, unda milliy o'ziga xoslik masalasi asosiy o'rinda turadi. Rus olimasi L.I.Sapagovaning fikricha realiya so'zlar deganda tilga o'zlashtirilgan so'zlarning bir turi bo'lib, ular chet tilidagi maishiy va mahalliy narsalarning nomlarini ifodalovchi maxsus so'zlar bilan maksimal darajada ohangdoshlikka ega .

Realialarning asosiy qismini otlar tashkil qiladi. Ba'zi atoqli otlar borki biror bir vaziyatga yoki milliy qadriyatlarga tayanib qo'yilgan. Masalan;

Teshavoy, Bolta, O'roqali, Bo'ri, To'ychi, Temir, Qoplonbek, Yo'lchi, Qizlarbas, To'xtasin, Saksonboy, Ko'paysin, Navro'zbek shu va shunga o'xshash ismlar realiyaning yorqin namunasi hisoblanadi.

Realiya birliklar til o'rganish jarayonida ham amaliy ahamiyat kasb etadi. Zamon talablari asosidagi til ta'limi masalalari bilan shug'ullanadigan lingvodidaktikada madaniy belgilarni o'zlashtirishga ham e'tibor qaratiladi. Realialar tilning lug'at boyligi, frazeologik qatlami, obrazli ifoda va o'xshatishlarning mazmun-mohiyatini yoritishda ham ahamiyatlidir. Realialar har bir davrda, har bir xalqlar aro muloqotda mavjud. Boshqa millat va xalqlar uchun tushunarsizlikni bartaraf qilish uchun realialarning korpusini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

O'zbek lingvomadaniyatida ramz tushunchasini yoritib berish maqsadida ramz tushunchasi haqida fikr yuritishimiz lozim. Jamiyat tizimida insonlar mazkur jamiyat, guruh va ijtimoiy muhitda qabul qilingan ramzlardan foydalanmasdan yashay olmaydilar. Insonni hayvondan farqlovchi jihatlardan biri - uning ramzlashtirishga bo'lgan ehtiyojidir.

“Ajdodlarimiz bugun ibtidoiy davr deb baho beriladigan paytlarda bizga qaraganda yuz karra shoirroq edilar. Ular albatta, poeziyani tushunmasdilar, biroq bugungi kun bilan aytganda, o'sha minglab yillar avval ularning tafakkur tarzi “ poetik mushohada” tarzida edi: ular hayotlari va tabiatdagi har bir narsani tasavvur qilgan tushunchalarning ramzi sifatida qabul qilardilar. U paytlar osmon, suv, ko'kat, quyosh, oy, yorug'lik va zulmat - Tangrilari edi: quyosh o'rnini tun egallarkan , ezgulik va yovuzlik kurashi ketyapti deb o'ylashardi. Hayvonlar ham tangrilar edi, ularning ichida ham yovuz va ezgu niyatli lari bor edi. Ezgulik tangrilari osmonda, yer yuzida yorug'lik bilan yashashadi, yovuzlik tangrilari yer ostida, zulmat bilan birga yashashadi deb o'ylardilar”

Ramz tushunchasi turli fanlar jihatidan turlicha talqin qilinadi:

1) ramz - belgi bilan o'xshash tushuncha (tillarni sun'iy

formallashtirishda);

2) hayotni san'at vositasida obrazli o'rganishning o'ziga xosligini ifodalovchi universal kategoriya (estetika va san'at falsafasida);

3) muayyan madaniy obyekt;

4) ramz belgi bo'lib, uning dastlabki ma'nosidan boshqa ma'no uchun shakl sifatida foydalaniladi²⁹.

Lingvokulturologiyani ramzning belgilik jihati qiziqtiradi. Agar oddiy belgi insonga ma'nolarning predmetlar olamiga kirish imkoniyatini bersa, ramz ma'noviy munosabatlarning predmetlar mavjud bo'lmagan olamiga kirish imkoniyatini beradi. Ramzlar orqali bizning ongimizda kishilarni yagona etnomadaniy hamjamiyatga birlashtiradigan madaniyatning eng muqaddas qirralari ochiladi, aqlga sig'maydigan, g'ayrisuuuriy botiniy ma'nolar yuzaga chiqadi. Ramzning o'ziga xos belgisi, ob'ekti, predmeti bilan aloqasini yo'qotgan ma'no sifatida qabul qilishidadir.

Ramz tashqi dunyoning turli madaniyat vakillari ichki dunyosi, ongi, tafakkurida aksidir. Har bir madaniyat vakilida ichki dunyoni o'ziga xos qabul qiluvchi "tug'ma mexanizm" mavjud bo'ladi. Bu "tug'ma mexanizm" tashqi dunyoni ramzlar, timsollar orqali "qayta ishlab" qabul qilishga moslashgandir.

Ijtimoiy muloqot tizimida muayyan obyektlar, masalan, predmet, harakat, hodisa, matn, tasvir, hayvon, o'simlik, rang, raqam va hokozalar ramz bo'lib xizmat qiladi. Ramzlar moddiy, tushunchaviy, so'zli, tasviriy bo'lishi mumkin.

O'zbek tilida qora ko'z, qo'y ko'z, quralay ko'z, ohu ko'z va boshqalar go'zallik alomati sifatida qo'llanilib kelinadi. Qadimgi yunonlarda go'zal, shahlo ko'z *ho'kizning ko'ziga o'xshatilgan*. Qirg'iz va qozoqlarda *bo'tako'z* chiroyli ko'zning sifati bo'lib keladi hozirgacha. Hindistonda sigir - nafosat, go'zallik, sahovat va ona mehrining timsoli bo'lganligi sababli go'zal mahbuba *sigirga* nisbat beriladi. Ko'p xalqlarda *arslon* yirtqichlik, shafqatsizlik ramzi bo'lsa,

²⁹ Maslova, V. A. Lingvokulturologiya. Izdatelskiy sentr "Akademiya" 2001. - S.95.

bizda dovyurak kishilarni arslonga o'xshatadilar. Masalan, Qirol Lirning shafqatsiz qizlari arslonlarga o'xshatiladi. Bizda arslon ijobiy ma'noga ega bo'lganligi uchun ham tarjimada G'afur G'ulom bu so'z oldidan "urg'ochi" sifatini qo'shadi:

Nima qilib qo'ydingiz, yo urg'ochi arslonlarmisiz?

Nemislarda esa *cho'chqa* omad va baxt timsoli ekan. O'zbeklarda *yo'lpashsha* – mehmon darakchisi. Ana shunday tabiiy, ijtimoiy, tarixiy sabablar taqozosi bilan tug'ilgan hamda har bir xalqning o'ziga xos ruhiy hayotini aks ettiruvchi (ko'pincha xos so'zlar bilan ifodalangan) tasavvur va tushunchalarni bir tildan boshqa tilga o'tkazish tarjimonidan nihoyatda ehtiyotkorlikni talab etadi.

"Har bir tilda o'sha tilning sohibi hisoblanmish xalqning o'zi ko'proq mashg'ul bo'lgan xo'jalik, ishlab chiqarish sohalari hamda uni o'rab turgan tabiiy muhit (iqlim, hayvonot va o'simliklar olami, tog', cho'l, sahro va hokazo)ga aloqador so'zlar, atamalar, iboralar boshqa tillarga nisbatan ko'proq yoki kamroq bo'lishi mumkin³⁰" Ramzlar turli yo'nalishlarda ifodalanishi mumkin. Ranglar orqali ifodalanishini ko'rib chiqamiz.

Oq rang – deyarli barcha xalqlarda soflik, rostgo'ylik, ezgulik timsoli sifatida ifodalanadi. O'zbek madaniyatida oq rang pokizalik, musaffolik, ezgulik ramzini anglatadi. Shu o'rinda oq rang qatnashgan realiyani kuzatishimiz mumkin. *Oq o'rar* – Uzoq Sharq mamlakatlarida madaniyatida oq – motam rangini bildiradi. Agar motamda qora kiyilsa, marhumning ruhi hech narsa ko'rmaydi, deb ishonilgan. Shuning uchun ham motamda oq rang bu dunyodan keyingi hayot, ko'rish ramzi hisoblanadi. O'zbekistonning Xorazm viloyatida ham motamda oq kiyim kiyish udumi mavjud³¹. Surxondaryo viloyatida ham ayollar aza tutganda oq ro'mol o'raydi. Aza ro'molni vafot etgan kishining yaqin uch qarindoshi oladi. Turkmanlar esa ko'k ro'mol o'raydi

Qora rang – turli lingvomadaniyatlarda turli ma'no ifodalaydi. Sharq va

³⁰ Qarang Hamidov X.X. Tarjimashunoslik ma'ruza matni Toshkent-2022. 64-bet

³¹ Sh. Usmonova Lingvokulturologiya. Darslik Toshkent 2019 47 bet

O'rta Osiyo madaniyatida ba'zan qora rang ulug'vorlik, buyuklik ramzi sifatida talqin qilingan. Yevropa mamlakatlarida inson vafot etganda qora rangda kiyim kiyishadi. Qora rangli kiyim kiyishsa biror yaqini vafot etganini tushunishadi.

She'riyatni ramzsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, bu ayni haqiqat. Chunki she'r ramz, majoz va badiiy ko'chimlar bilan jozibali, ular bilan tirik hamda navqirondir. Agar o'simliklar olami tonggi shabnamda qay darajada huzur qilib rivojlansalar, she'riyat uchun ramzlar, majoz va badiiy ko'chimlar tongi shabnamdek zaruriy shartdir. Ular she'riyatga yangicha ma'no va mohiyat bag'ishlash bilan bir qatorda so'zning ham yasharishi, jilo topishi, yangi-yangi ma'nolar kasb etishi uchun imkon yaratadilar. So'z san'atkorining bosh vazifasi lug'at boyligimizdagi so'zlarni badiiy amaliyotda qo'llashgina emas, balki ular asosida yangi-yangi so'zlarni kashf etish, tilning ifodaviy qudratini kuchaytirishdan iborat. Shu ma'noda o'zbek she'riyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, har bir ijodkor poeziya maydoniga yangi ramzlar, majozlar va ko'chimlar bilan kirib kelganini ko'rishimiz mumkin. Rang bilan bog'liq ramziy obrazlar yaratish, ularda hayotimizning barcha jihatlarini, zamondoshlar qalbida, ongida charx urib yurgan nozik va ziddiyatli kechinmalarni, o'ylarini aniq, obrazlar sifatida shakllantirib, she'rxonga taqdim etish, deyarli barcha shoirlarimizga xos xususiyat hisoblanadi. Ma'lumki, qora rang bilan bog'liq ramziy obrazlar qadimdan istifoda etiladi.

Biroq aksariyat hollarda bu rang dahshat, yovuzlik, yer osti dunyosi, ya'ni o'liklar olamining ramzini anglatgan. *Tun* ramzi ham ana shu an'ananing metaforik ifodasidan iborat. Keyinchalik an'anaviy ramzlar semantikasida ham kengayish yuz berdi. Masalan, mumtoz va hozirgi poeziyada qora rangi ma'shuqaning qoshi, ko'zi, sochiga nisbatan qo'llanilganda ijobiy ma'no ifodalasa, qismat, baxt, ro'zg'or, tun so'zlariga nisbatan ishlatilganda, an'anaviy yovuzlik, dahshat kabi ramziylik anglashiladi. Shu bois tun bag'riga yashiringan siru-sinoatlar hamisha she'riyatning tasvir ob'ekti bo'lib kelgan. Masalan:

Tun. Yulduzlar falakning yongan fig'oni,

Tun. Ertakka o'xshagan yolg'onchi umr.

Tun. Mushuk tutmagan qora kalamush.

Tun. Kuchuk quvmagan qora rang bo'ri.

Tun. Hovlilar oralab yurgan yalmog'iz... Osmon yoritqichlarining poetiklashtirish an'anasi ham ajdodlarning ishonchlaridan kelib chiqqan. Ya'ni biror narsaga sig'inishidan. Misralardagi "qora kalamush", "qora rang bo'ri", hatto yalmog'iz ham muayyan toifa odamlarining ramziy obrazlari hisoblanadi. She'rda eri urushga ketgan ayol (ona) xotiralari badiiy ifodalangan ekan, sirtidan bu narsani anglash qiyin. Lekin shoirning "onam xotiralari" dan degan iqtibosi va birinchi qism so'ngida Tun. Oyga ketib qaytmagan ota. Tun, Oqpadar, bezori urush" ochqich misralari bor. Shunga ko'ra she'r urushning tirik qurboni – ona hasratnomasidir. *Qora kalamush, qora rang bo'ri, yalmog'iz* bari urushning ramziy suratlari. Urush changal solgan xonadonda ro'y beruvchi kechmishtar shoir qalamida betakror ifodalangan. Va yana dom-daraksiz ketgan ota. Chunki, *ko'ziga ajal tupurgan* – o'lmas odam hasrati, sog'inchi va yana qancha dard-iztiroblar – Tun ramziga muqoyasa qilinadi. Shuning uchun rang bilan bog'liq ramziy obrazlar o'zbek she'riyatida inson ruhiy iqlimlarida yuz berayotgan turfa holatlarni, o'zgarish evrilishlarni nisbatan to'liq va ta'sirchan ifodalashga xizmat qiladi. Bu narsa ayniqsa istiqlol davri adabiyotida, o'tmish hodisalari badiiy taftishdan o'tayotgan davrda tariximizning istilochilar zulmi davrini ramzlashtirishda an'anaviy qora rang emas, balki qizil rang ijodkorlarning g'oyasi badiiy niyatiga, ifoda talabiga kelishida yorqin namoyon bo'lgan. Dadil aytish mumkinki, bu tamoyil barqaror an'ana sifatida she'riyat xazinasidan mustahkam o'rin olgan:

Qip-qizil turnani kutdim o'ttiz yil,

Yechay deb bo'ynidan billur halqani,

Otamga shifolar so'rdim o'ttiz yil,

Rahm qani?

Shafqat qani?

She'rdagi lirik qahramonining kutgani "qip-qizil turna" – sotsialistik tuzum va'da qilgan jannat ramzi. Qizil rang bilan berilgan ramz ana shu jannatga yeta olmagan, sarobga ergashib adashgan insonning masalasini ta'sirchan va betakror ifodalashga imkon bergan. A.Qutbiddin she'rlaridagi rang bilan bog'liq ramziy obrazlar, yuqorida e'tirof qilganimizday, ijtimoiy hayotdan tanlangan bo'lib, undagi ramziy obrazlarda bevosita hayotimizda ro'y bergan voqeliklar bilan uzviy bog'liqligini ko'ramiz! Zero, Gyote e'tirof qilganiday, har bir she'rning hayotiy prototipi mavjuddir: Qip-qizil turna ramziy obrazidagi rangni bildiruvchi qip-qizil orttirma daraja sifati bizga "bobo meros" rang ramzi bo'lib biz yetmish yil shu ramzlarga ishonib yashadik; "qip-qizil bayroqlar soyasida, qip-qizil jildli firqa, komsomol biletlarimizni muqaddas bilib ko'ksimizga bosganicha yashadik! "Qip-qizil bayroqlar ozodlik" keltirib, "qip qizil" jildli biletlarimiz esa bizga "erk" hadya qilgandi. Ammo negadir ozod, erkli shoir o'ttiz yildan buyon turnani kutadi, Bahorlarni, yashillikni, yashnash va yasharishni boshlab kelguvchi qip-qizil billur xalqali turnani kutdi. Bayroqlarimiz, hujjatlarimiz qip-qizil bo'lgan yurtda shoir qizil bo'lmagan, oddiygina turnani kutib qo'ya qolsa bo'lmaydimi?

Demak, o'ttiz yil kutilgan turnaning qizilligi biz yuqorida e'tirof qilgan bayroqlar qizilligidan farq qiladi. Yo'qsa, qip-qizil turnani kutgan qahramon rahm, shafqat talab bo'lmasdi. Zero, bu o'rinda inqilob bergan ozodlikdan o'zgacharoq, o'g'ridan qochib qaroqchiga tutilmaydigan, erta bahorlarda qalbga yaqin mayin saslar og'ushida qip-qizil turna keltirishi kerak bo'lgan haqiqiy ozodlik, erk kutilgan. Bu ozodlik, erk ramzi bo'lgan qip-qizillikning kutilayotgan turna bilan bog'liqligi esa bahor yasharish, yangilanish tuyg'ulari bilan uyg'unlashib ketadi. Bahor – uyg'unish, yangilanish, yasharish fasli qip-qizillik esa uning husniga husn bo'lib qo'shilishi shubhasiz. Ramz hayotimizning ajralmas qismi desak mubolag'a bo'lmaydi. O'z navbatida bu til birligi ham

realiya vazifasini o'tashga xizmat qiladi.

2.2. Milliy realiya va stereotip

Lingvokulturologiya fani – inson, til, madaniyat chorrahasida kesishgan keng qamrovli, teran tushuncha bo'lib, ular uchovi bir-birini uzviy ravishda to'ldirib turadi. Inson tomonidan bildiriluvchi fikrlar albatta u yoki bu tushunchani yoxud qaysidir bir xalqning madaniyatiga xos tushunchalarni o'zida mujassam etadi. Ushbu madaniyatni ifodalovchi tushunchalar tilshunoslik, madaniyatshunoslik, mamlakatshunoslik, lingvokulturologiya kabi fanlar nuqtai nazaridan tahlil qilinishi mumkin. Ushbu tilda ifodalangan madaniy tushunchalarni umumlashtirib “stereotip” deb atash ham mumkin. Stereotip o'zi nima? “Stereotip muayyan guruh yoki jamoaning soddalashgan, sxemalashgan emotsional bo'yoqdor va favqulodda barqaror bo'lgan obrazi, turli madaniyat vakillarining tili va tafakkurining o'ziga xosligidir”. Stereotip – u yoki bu xalqning milliy xarakteri haqida obyektiv ma'lumot beradi. V.A. Maslovaning ta'biricha, “stereotip dunyoda mavjud tip bo'lib, u faoliyat, xatti harakat va hokazoni o'lchaydi³²”. Stereotiplar hech qachon alohida kishilarda paydo bo'lmaydi, ular har doim guruhlarda yuzaga keladi. “Stereotip” termini (yunon. stereos – qattiq, typos – iz, tamg'a) amerikalik sotsiolog Uolter Lippman tomonidan ilmiy muomala) ga kiritilgan. U 1922-yilda nashr etilgan “Jamoat fikri” nomli kitobida stereotiplarning jamoat fikri tizimidagi o'rni va rolini aniqlashga harakat qilgan. Uolter Lippman stereotipni bizning ongimizga yetib bormasidan oldin his-tuyg'ularimizdagi ma'lumotlarga muayyan ta'sir ko'rsatadigan atrof-muhitni alohida idrok qilish shakli sifatida tushuntirgan. Stereotip tushunchasi haqiqatdan ham, ma'lum bir millatning hamma uchun umumiy ko'rinuvchi izi yoki o'ziga xos belgisi desak xato bo'lmaydi. Xuddiki aytilganidek, har bir teshaning o'z izi bo'ladi deyilganidek, har bir xalqning faqatgina o'zigagina xos xususiyati bo'ladi. Masalan, umumiy jihatdan madaniyatlarni tahlil qiladigan bo'lsak:

³²Qarang Gulsanam To'lanboyeva Sabohatxon Yusupova // Lingvokulturologiyada “stereotip” tushunchasi Scientific progress ilmiy jurnali 2023. 328-bet



O'zbek xalqi o'ziga xos mehmonnavoz, mehribon, er yigitlari tanti, hamiyati baland, qiz va ayollari esa ibo-hayoli, nomusi o'limdan qattiq

- Rus xalqi tavakkalchi, shartaki, ochiq muloqotni ko'ruvchi;
- Qozoqlar anchayin qaysar va bir so'zlik
- Turk millati esa ta'sirchan, his-tuyg'uga beriluvchan;
- Xitoyliklar esa anchagina takallufga boy, laganbardorlikka moyil;
- Yaponlar esa anchayin xushmuomala, madaniyatli, etiket qoidalariga qat'iy amal qiluvchi;
- Estonlar esa tabiatan sustkashlikka moyil;
- Italyanlar ancha-muncha qiziqqon bo'lib, sal deganda lov etib yonuvchan;

- O'zbek xalqi esa yuqorida ta'kidlanganidek, mehribon, mehmonnavoz, bolajon va shu bilan bir qatorda diniy tushunchalarga keng e'tibor beruvchi, diniy tushunchalarni hurmat qiluvchi xalq hisoblanadi. Yuqoridagi misollar, o'zbek xalqining stereotipini yorqin namunasi sifatida berilgan bo'lib, bu parchalarni o'qigach ushbu xalq ularning dunyoqarashi, tushunchasi haqida umumiy fikrlarga ega bo'lish mumkin. Lingvokulturologiya ham aynan shunday etnomadaniy ya'ni aynan milliy stereotiplarni tahlil qiladi. Ushbu stereotip tushunchasi har doim ham ijobiy tushuncha emas. Masalan, M. Korduellning psixologiyadan tuzgan lug'atida stereotipga shunday ta'rif berilgan: "Stereotip - ma'lum guruh yoki kategoriyadagi keskin, ko'pincha yuzaki tasavvur. Biz umumiyatda yuzakilikka moyil bo'lganimiz uchun ham boshqa insonlarning xulq atvorini oldindan ko'rish uchun stereotiplarni shakllantiramiz. Mazkur stereotiplar ko'pincha salbiy mohiyat, soxta tasavvur va tahqirlash asosiga ega bo'ladi.

Stereotiplar har doim ham yolg'on bo'lmaydi: odatda ularda ma'lum ma'noda haqiqat bo'ladi. Stereotiplarni ko'pchilik tomonidan bo'lishi ularning singib ketishiga yordam beradi. Stereotiplar vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin, lekin stereotip sohiblarining o'zlashtirilgan tasavvurlardan qutulishi

qiyin bo'ladi". Darhaqiqat, stereotiplar ijobiydan salbiyga, salbiydan ijobiyga vaqtlar o'tib o'zgarishi bu tabiiy, ammo stereotip haqidagi dastlabki tushuncha mutlaqo o'zgaraydi yoki o'zgarishi va adaptatsiyaga uchrashi birmuncha qiyin. Stereotiplar biroz chigal, ba'zida tushunarsiz ammo shu bilan bir qatorda qiziqarli mavzu bo'lib, ushbu tushuncha ommaga tanitilgandan buyon ko'plab muhokama va muzokaralar markazi bo'lib kelmoqda. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, lingvomadaniyatshunoslik sohasi aynan tanlab olingan millatning umummilliy o'ziga xosliklarini til vositasida dunyoga ko'rsatib beruvchi sohadir. Stereotip tushunchasi esa buni yanada oydinlashtirish vositasidir.

V.A.Maslovaning fikricha, "stereotiplar har doim milliy bo'ladi, agar boshqa madaniyatlarda ayni stereotiplar uchrab qolsa, unda ular haqiqiy emas. Yoki ular bir biriga to'la mos kelsa ham baribir qaysidir jihatlari bilan farq qiladi. Masalan, turli madaniyatlarda navbatga turish holatlari har xil bo'ladi, shunga ko'ra stereotip muomalasi ham farq qiladi. Rossiyada "Kim oxiri?" deb so'raladi yoki shunchaki navbatga turiladi. Yevropa mamlakatlarning aksariyatida navbatga turish uchun maxsus apparatdan chipta (raqam yozilgan kichik kvitansiya) yirtib olishadi.

A.M.Jabborov bu borada quyidagilarni aytib o'tadi:

1) Ijtimoiy-madaniy muhit vujudga kelishining manbalari etnosning birligi, tili, zamon va makonda tashkil topishi, xalqning turmush tarzi, boyliklari, qadriyatlari, ijtimoiy hamda madaniy mavjudligi va hokazolardan iboratdir;

2) Xalqning o'ziga xos fe'l-atvori va psixologiyasining etnik stereotiplarini tadqiq qilish, ularni vujudga keltirgan ijtimoiy-madaniy tizimni o'rganish asnosida amalga oshirilishi kerak. Bunda xalqning o'ziga xosligini tiklash avloddan-avlodga o'tib kelayotgan stereotiplarning noaniq nusxasi ekanini hisobga olish kerak³³. Aksariyat tadqiqotchilar etnik stereotiplarni muqarrar, lekin xavfli hodisa hisoblashadi. Ko'pchilik lug'atlarda "stereotip" so'zi salbiy

³³ Bu haqida qarang: Belinskaya E. P. O'smirning etnik ijtimoiylashuvi. [Elektron resurs] URL: <http://psyera.ru/4906/etnicheskie-stereotipy-i-process-stereotipizacii>

ma'noda qayd qilingan. Jumladan, M.Korduellning psixologiyadan tuzgan lug'atida stereotipga shunday ta'rif berilgan: "Stereotip – ma'lum guruh yoki kategoriyadagi kishilar haqidagi keskin, ko'pincha yuzaki tasavvur. Biz umumiyatda yuzakilikka moyil bo'lganimiz uchun ham boshqa insonlarning xulq-atvorini oldindan ko'rish uchun stereotiplarni shakllantiramiz. Mazkur stereotiplar ko'pincha salbiy mohiyat, soxta tasavvur va tahqirlash asosiga ega bo'ladi.

Stereotiplar har doim ham yolg'on bo'lmaydi; odatda, ularda ma'lum ma'noda haqiqat bo'ladi. Stereotiplarning ko'pchilik tomonidan shakllantirilishi ularning singib ketishiga yordam beradi. Stereotiplar vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin, lekin stereotip sohiblarining o'zlashtirilgan tasavvurlardan qutulishi qiyin bo'ladi³⁴.

Har bir xalq, har bir mamlakatda atrof-muhit haqida o'z g'oyalari bor. Ba'zi shunday stereotiplar ham mavjudki, buni ma'lum madaniyat vakillari o'zlariga nisbatan xulq-atvor va urf-odatlar majmuyi sifatida qabul qilgan.

Madaniy stereotiplar madaniyat egalarining ehtiyoji, tili, dini, madaniyati, tabiati, flora va faunasi, o'zgalardan ajralib turishga intilishlari, tanlovi o'laroq paydo bo'ladi va qat'iylashadi, o'zgarmas o'rin egallaydi; boshqa madaniy stereotiplardan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Zamonaviy tilshunoslikda madaniy stereotiplarni o'rganishga ehtiyojning kelib chiqishi nima bilan bog'liq? Bu ehtiyoj yuqorida aytganimizdek stereotiplar muayyan millatning tili nuqtayi nazaridan ham paydo bo'lishi mumkin, yoki bo'lmasa madaniyatning tilga, tilning madaniyatga munosabatini o'rganish mobaynida o'sha xalqqa xos, boshqa xalqlardan ajralib turuvchi stereotiplarni kuzatamiz. Stereotiplar ma'lum xalq tomonidan ma'lum davrda yaratilar ekan ularni avlodlarga tashish uchun til

³⁴ Кордуэлл М. Психология А-Я. Словарь-справочник. –М., 2000.

muhim vosita vazifasini o'taydi. Madaniy stereotiplar keyingi avlodlarning mentalitetini shakllantirishda faol rol o'ynaydi.

Dunyo xalqlari o'z milliy madaniyatida hukmronlik qiladigan g'oyalar, munosabatlar va qadriyatlarnigina tan olishadi. Dunyoni mana shu ko'z bilan ko'radi. Shu sababli, dunyo haqida odamlarning taqdimotlari har doim nisbiy va xilma-xil bo'lib, u qaysi madaniyat bag'rida tug'ilganligi va voyaga yetganligiga bog'liq. Nima uchun boshqa madaniyat vakili dunyoni o'ziga notanish jamiyat vakilining qandaydir sotsial-madaniy kontekstida o'zini tutishiga qarab yoki uning bu dunyoni qanday qabul qilishiga qarab, uning his-tuyg'ularini qanday ishlashini tasavvur qilib tushunishi kerak. Boshqa xalqlar va madaniyatlar vakillari bilan uchrashuv, odatda, o'z harakatlarini madaniyat nuqtayi nazaridan suhbatdoshining boshqa ijtimoiy va madaniy muhitni tan olishini haqqoniy va to'g'ri baholay olmaydi. Ko'pincha birovning tilini, imo-ishoralar va xatti-harakatlarning boshqa elementlarini tushunmaslik holati ularning bunday xatti-harakatlari va his-tuyg'ularning ma'nosini bilmaslikka yoki noto'g'ri tushunishga olib keladi. Natijada boshqa madaniyat vakiliga nisbatan hushyorlik, nafrat va dushmanlik kabi salbiy his-tuyg'ularni keltirib chiqaradi. Stereotiplar - bu madaniyat vakillarining kollektiv ongining shakli - bu odamlarning jamoat tajribasini aks ettiradi, ularning kundalik amaliyotida keng takrorlanadi. Ularning faoliyati natijasida hosil bo'ladigan qo'shma faoliyat.

Odamlar ma'lum bir madaniy stereotiplarning paydo bo'lishi xususiy xususiyat kasb etishini ta'kidlab, atrofdagi ijtimoiy hayotning paydo bo'lishi, ular juda yaxshi ko'rinadigan yoki tushunadigan harakatlarning paydo bo'lishini stereotip shaklida qabul qiladi. Madaniyat tarkibidagi stereotiplar xalq xususiyatlari va fazilatlarining konsentratlaridir, ularning mohiyatini aniq yetkazish xalq madaniyatini tog'ri yetkazishning yagona usulidir.

O'zbek xalqining etnik stereotiplari, o'ziga xosligi, uning an'analari, marosimlari, urf-odatlari, matallarda va hikmatli so'zlarida chuqur o'rin olgan. Xalqning asrab-avaylashi va ardoqlashi sababli, ular hozirgacha o'zining dastlabki ma'nosini yo'qotmagan va millatimiz vakilining kundalik hayotidagi eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu o'rinda milliyligimizni ko'rsatib beruvchi stereotiplarga misol keltiramiz. Ushbu so'zlar stereotip bo'lish qatorida milliy realiya bo'lib ham xizmat qiladi.

Qaldirg'och xalqimizda yaxshilik, qut-baraka elchisi sifatida e'zozlanadi. Shuningdek, u bahor darakchisi. Aynan qaldirg'och obrazining olinganiga sabab xalqimizda bu qushga nisbatan o'zgacha qarash, mehr tufayli. Bu esa quyidagi she'rda o'z aksini topgan;

Qaldirg'och, qaldirg'och,

Eshigingni och, och.

Man yorimni ko'ray bir,

Yo'llarimdan qoch, qoch.

Do'ppi stereotipi qaysi millatga oidligimizni ifodalovchi vosita. Milliyligimizning yaqqol namoyon etadi. Atlas ko'ylak kiyib, sochini ikki yonga o'rib qo'ygan qizga ko'zimiz tushsa odobli, iboli, hayoli qiz ekan, degan tasavvurga boramiz. Har doim ham o'ylaganimizdek bo'lmaydi. Stereotipning ba'zida yolg'on ma'lumot tashishligi ham ana shunday paytlarda namoyon bo'ladi.

Etnomadaniy stereotiplar orasida, ayniqsa, nemis stereotipi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Nemis madaniyatida tartib, aniqlik, puxtalik, o'z vaqtida bo'lishlik, buyruqqa, qonunlarga hurmat, pog'onalilik, maqsadga intilish, ratsionalizm sifatida tushuniladi. Nemis mentalitetining stereotiplari asosida protestantlik etikasining xususiyatlari yotadi. Unda har bir kishi o'zining xatti-harakatlari uchun Xudo oldida javob beradi. Shuning ko'ra ham nemislar uchun qonun muqaddas, barcha narsadan ustun hisoblanadi.

Xalqaro latifalar, turli korinishdagi hazillar, milliy badiiy adabiyot,

folklor, xalq ogzaki ijodi va milliy til stereotip tasavvurlarning keng tarqalgan manbalari hisoblanadi. Stereotip tasavvurlar asosida milliy xarakterlarni ochib berishga qaratilgan quyidagi latifani ko'rib chiqamiz:

Bir kuni turli millat vakillarini kino ko'rishga yuborishibdi. Filmning mazmuni quyidagicha ekan: cho'g'dek yonayotgan cho'l va qizdirayotgan quyosh. Erkak va ayol zo'rg'a sudralib ketishmoqda. Birdan erkak qayerdandir sersuv apelsin topadi va uni ayolga beradi. Tomoshabinlarga shunday savol berilibdi: U qaysi millat vakili? Fransuz-tomoshabin shunday javob beribdi: Faqat fransuzgina ayolga shunday sermulozamat bo'lishi mumkin! Rus: Yo'q. Bu rus! Buni qarang, ahmoq. O'zi yeyishi mumkin edi. Yahudiy: Yo'q, bu yahudiy. Kim ham cho'ldan apelsin topa olardi? Mazkur stereotiplar vositasida *fransuzlarning sermulozamatligi, ruslarning beparvoligi va yahudiylarning uddaburonligi ko'rsatilgan.*

Stereotiplarning *avtostereotip va geterostereotip* turlari ham mavjud. Avtostereotiplar kishilarning o'zlari haqida nima o'ylashlarini, geterostereotiplar boshqa xalqlar haqidagi o'y-fikrlar, munosabatlarni (ko'proq tanqidiy munosabatlarni) aks ettiradi. Masalan, o'z xalqida tejamkorlik hisoblangan odat, boshqa xalqda kuzatilganda xasislik sifatida baholanadi.

2.3. Milliy realiya va metafora

Insonning fikrlashi, kuzatuv, his etib idrok etishi - barcha-barchasi metaforik hususiyatli bo'lib, bunda: metafora nutqni tejash tamoyiliga amal qiladi va bunda tilda avvaldan mavjud bo'lgan so'zlarning yangi ma'nolarini vujudga keltiradi;

- metaforaning amal qilishi hayratomuzdir: atrofdagilarning muayyan tavsif yoki sifatlarni qo'llamay, "qog'ozga o'rab", butunlay boshqa kategorial guruhlarga tegishli so'zlarni qo'llagan holda gapirishiga qaramasdan, tinglovchi ularning muddaolarini xatosiz anglaydi;

- metafora - munosabat bildirishning alohida nuqtayi nazari bo'lib, uning

mexanizmi inson madaniyati, saviyasi va hokazolarga teng ravishda axloqiy baholash shkalasiga o'zaro proporsional tarzda ishlaydi. Shunga ko'ra metafora kognitiv-pragmatik jihatdan madaniy axborotni tashuvchidir.

Ritorika metaforani alohida mahorat va ehtiyotkorlik talab etuvchi so'z o'yini, ya'ni muayyan shakl emas, balki, nutqning tasviriy vositasi, bezagi deb qabul qiladi.

Davr o'tib, metafora muammosi ritorika ko'lamidan tashqariga chiqib, tilshunoslikka o'tdi. Shu zaylda metaforaning qiyosiy konsepsiyasi yuzaga keldi. Unga ko'ra, metafora - odatiy nomlanishning tasviriy idrok etilishi. Bunda metafora yashirin qiyos sifatida tekshiriladi, qiyosiy nazariya esa metaforik bayonni ikki taqqoslanayotgan predmetga bog'liq bo'ladi, deb xulosa qilgan. Ritorika metaforani alohida mahorat va ehtiyotkorlik talab etuvchi so'z o'yini, ya'ni muayyan shakl emas, balki, nutqning tasviriy vositasi, bezagi deb qabul qiladi. Barcha tillarda kuzatilgani kabi, metaforalarni tekshirish o'zbek tilshunosligida ham XX asrning so'nggi o'n yilliklariga kelib o'zining jiddiy ilmiy-tadqiqiy rivojini topdi.

O'zbek leksikologiyasiga doir keng qirrali izlanishlar muallifi, atoqli olim M.M.Mirtojiyev metaforalarni nutq hodisasiga va til hodisasiga oid turlarga ajratadi. Nemis tilshunosligidagi metaforalarning: personifikatsiya, simvolizatsiya, allegoriya, sinesteziya deb nomlangan ko'rinishlariga: "Nutq hodisasiga oid metaforalarning bu ko'rinishlarini ba'zi o'zgarishlar bilan til hodisasiga oid metaforalarga tatbiq etsa bo'ladi. Bunda nutqning sof o'z xususiyatidan kelib chiqqan simvolizatsiya va allegoriyalarni chiqarib tashlashga to'g'ri keladi. Chunki simvolizatsiya nutq kechimidagi ellipsis bilan bog'liq sodir bo'luvchi metaforadir. Allegoriya esa nutq kechimidagi qochirim va intonatsiya bilan bog'liq holatda yuzaga chiqadi. Shundan kelib chiqib, til hodisasi bo'lgan metaforalar oddiy metafora, personifikatsiya va sinesteziya kabi ko'rinishlarga bo'linadi", deb munosabat bildiradi.

M.M.Mirtojiyevning ta'rificha, oddiy metaforani deyarli qisqargan

o'xshatish deb bo'lmaydi. Oddiy metafora referentlarning oddiy qiyosi, o'xshashligiga asoslansa, personifikatsiya jonsiz referentning jonli referentga o'xshatilishiga; sintesteziya bir sezgida his qilingan referentning boshqa sezgi bilan his qilingan referentga belgilarini ongda umumlashtirib qiyoslanishiga, o'xshatilishiga asoslanadi. Yuqorida ko'rib o'tilgan metaforalarning barchasi, asosan, odatiy metaforalardir.

Tilshunos Qo'ng'urov metaforani yashirin o'xshatish deb atab, uni oddiy qiyosdan farqlaydi: oddiy qiyos ham doim asosiy ikki a'zodan tashkil topadi, metaforada esa, faqat ikkinchi a'zo – o'xshatilgan narsa qoladi, o'xshagan narsa tushiriladi, lekin u kontekstdan ochiq sezilib turadi. Demak, metaforada tasvirlanayotgan predmet ana shu ikkinchi a'zo orqali idrok qilinadi.

M.Yo'ldoshev esa, tilshunoslikda mazmun jihatdan metaforalarning uch turi, ya'ni odatiy metaforalar, sinestetik va jonlantirish metaforalari farqlanishini aytadi.

Lisoniy kontseptlarni ularning milliy-madaniy o'ziga xosligi nuqtayi nazardan tahlil qilish metaforalarning kontseptual tahlilida qo'l keladi. Shuningdek, A.A.Potebnya, P.O.Yakobson, A.N.Veselovskiy, A.F.Losev, M.Yu.Lotman, O.Freydenbergning, olamning milliy obrazlari bo'yicha G.Gachevning, fan tilida metaforalarning qo'llanilishiga bag'ishlangan S.S.Gusev, O.M.Bessonova va b. tadqiqotlari esa, bu boradagi izlanishlarning salmog'ini oshiradi. Ma'lumki, milliy o'ziga xoslik quyidagi hollarda kuzatiladi³⁵: Leksik sathda: ikki qiyoslanayotgan tillarning birida metaforik mano mavjud bo'lib, ikkinchi tilda bu holat kuzatilmasa (A.Mo'minovning bu tasnifiga teomorfik metaforalarga tegishli quyidagi faktik materialimiz mos keladi): Ko'p emas, uch majidiya bersam bas, erimni o'sha alvastining qo'lidan tutqazib, o'zimga qaytarib berishardi. (Rashod Nuri Guntekin, Choliqushi) (Majidiya –

³⁵ Qarang f.f.d Махмараймова Шохиста Тухташевна Оламнинг миллий лисоний тасвирида теоморфик метафоранинг когнитив аспекти. Qarshi 2018. 75–bet

turkiya pul birligi hisoblanib, ushbu misolda madaniyatlar aro realiyani namoyon etyapti. Ma'lumot o'rnida)

Alvasti teomorfik metaforasi bilan bog'liq ushbu misol milliy lisoniy manzarada axloqiy ong va u bilan bog'liq timsollar to'g'risidagi tasavvurlarning o'z spetsifikasiga egaligini ko'rsatadi: chunonchi, "... timsollarning tasavvurlarini ifoda etuvchi lisoniy shakl bo'lish barobarida metaforalar tegishli madaniyat vakillarining jamiyat o'rnatgan asosiy qadriyatiy ko'rsatmalarini ifoda etadi". Yana misol: Bu orada Manka boshqa ko'ylagini kiyib, elkasiga ro'molini tashladi-da, Dizmaning oldiga kelib, yirik-yirik tishlarini ko'rsatib iljaydi.

- Qalay, jonon zo'r bo'libdimi?

- Yo'qol, alvasti! - deya qichqirdi Nikodim g'azab bilan. (Tadeush Dalenga-Mostovich, *Muttahamning parvozi*)

Ko'rinadiki, birinchi va ikkinchi misoldagi kontekstda alvasti metaforasi mavjud. Sememalar sathida: ikki qiyoslanayotgan tillarning leksemalari metaforalashsa-yu, hosil bo'lgan sememalarda yoki metaforizatsiya yo'nalishida farq kuzatilsa, semalar sathida: qiyos etilayotgan metaforik sememalar semalarning tarkibiga ko'ra farqlansa: U umrida hech qachon bundayin qari va badbashara ayolni ko'rmagan edi.

- Siz haqiqatmisiz? Qartaygan, burushiq alvasti tantanavor bosh silkidi.

- Ayting-chi, men insoniyatga siz haqingizda bildirishim kerakmi? Ularga qanday xabarni yetkazay? Kampir olovga tupurdi-da, javob berdi:

- Ularga meni yosh va sohibjamol deb ayt. Shuningdek, o'shanda bahorda mimoza guli taqib olgan bir ko'zi xiyolgina g'ilay bu alvastiga nima kerak edi o'zi? (M.Bulgakov, *Usta va Margarita*)

Metaforaning realiya bilan bir so'zda ifodalanish holatiga misol keltiramiz. *Endi bir stakan gaz suv ichib bo'lgandimki, budka orqasidan og'zi ko'na kalishday tarvayib o'zimizning juhud ko'rindi.* (Bahodir Qobul, *Ena Shamol (Qissa)*) Kalish, kovush, milliy oyoq kiyim hisoblanadi. Qadimdan ota-bobolarimiz

kiyishgan. Hozirda iste'molda ko'p qo'llanilmaydi.

Bir qariya qo'lida poyandoz bilan chiqib, "Qani, kelinglar", deydi. Ikki tomondan ikki yigit ajralib chiqib, katta qiyiqchadek keladigan poyandozning ikki uchidan tutadi. Qiyiqcha milliy kiyim turiga kiradi. Hozirda qo'llanilish doirasi torayib, to'ylarda to'n bog'lash vazifasini bajaradi.

Mashhur oshpaz Bahriddin Chustiy Namanganda Navro'z xalq sayli munosabati bilan o'tkaziladigan eng katta sumalak xayriya tadbiri doirasida, "do'ppidek osh" deya nomlangan eng kichik hajmdagi palov chempionati bo'lib o'tishi haqida ma'lum qildi.

O'zbek bo'sh bo'ldi deguncha do'ppidek osh tayyorlaydi. Do'ppi milliy realiyaning yoqin namunasi hisoblanadi. Ushbu misollarda metafora realiyaga xizmat qilyotganini ko'rishimiz mumkin.

Bob bo'yicha xulosa

Realialar tilning lug'at boyligi, frazeologik qatlami, obrazli ifoda va o'xshatishlarning mazmun-mohiyatini yoritishda ham ahamiyatlidir. Realialar har bir davrda, har bir xalqlar aro muloqotda mavjud;

Ijtimoiy muloqot tizimida muayyan obyektlar, masalan, predmet, harakat, hodisa, matn, tasvir, hayvon, o'simlik, rang, raqam va hokozalar ramz bo'lib xizmat qiladi. Ramzlar moddiy, tushunchaviy, so'zli, tasviriy bo'lishi mumkin;

Stereotip tushunchasi haqiqatdan ham, ma'lum bir millatning hamma

uchun umumiy ko'rinuvchi izi yoki o'ziga xos belgisi desak xato bo'lmaydi;

Metaforaning amal qilishi hayratomuzdir: atrofdagilarning muayyan tavsif yoki sifatlarni qo'llamay, "qog'ozga o'rab", butunlay boshqa kategorial guruhlarga tegishli so'zlarni qo'llagan holda gapirishiga qaramasdan, tinglovchi ularning muddaolarini xatosiz anglaydi;

Zamonaviy tarjimashunoslik bo'yicha jiddiy tadqiqot olib borgan A.A.Prokopeva milliy ong va madaniyatlar sathida milliy dunyoqarashlarning teng kelib qolishi muallif-tarjimon-retseptor o'rtasida metaforik interpretatsiyaga doir o'zaro mutanosib talqinning vujudga keltirishini qayd etadi. Milliy realiya ramz, stereotip, metafora bilan chambarchas bog'liqdir.

III BOB O'ZBEK TILIDA REALIYANING LINGVOPOETIK TAHLILI

3.1. Badiiy asarlarda realiya ifodasi

Realialar badiiy asarning miliy xususiyatini belgilaydigan asosiy vositalardan hisoblanadi. Xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan so'zlarni tarjimada muqobil qayta tiklash evaziga original asarning milliy to'qimasini o'zga tilda beshikast qayta yaratishdek yechimi shart bo'lgan

tarjima muammosini ma'lum ma'noda hal etish mumkin. Muayyan xalqning urf-odatlari turmush tarzi, o'zligini anglashi shu xalq etnomadaniyatini tashkil etadi. Xalqning etnomadaniyati haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lmasdan turib, tilshunoslik, etnografiya, madaniyat va hatto arxeologiya sohasida ham xalq hayoti bilan bog'liq bo'lgan ko'plab muammolarni hal qilish mumkin emas. Shu kabi muammolarni oldini olish maqsadida badiiy asarlarimizda keltirilgan milliy xos so'zlarni ko'rib chiqamiz.

Yaldo kechasi birikmasi adabiy tilda so'zlashuvchilar uchun notanish so'z ekanligini amaliyotda anonim so'rovnoma orqali sinab ko'rdik.

Yaldo kechasi — qishning eng uzun va qorong'u kechasi. Ma'lumotlarda keltirilishicha bu kechada gap- gashtak o'tkazilgan xonadon sohiblari mehmonlarni to'kin dasturxon tuzab kutib olishgan. *Bu dostonlarni to'ylar olis yaldo kechalari bobolarimiz biri qo'yib biri aytar edi.* (Tog'ay Murod. *Ot kishnagan oqshom.*)

Ma'lum bir kasb doirasidagi so'zlar boshqa kasb yoki hunar vakillari uchun realiya hodisasini voqelantiradi. *Men ikki kun ot sayladim. Oboqli dashti gala gala ot! Dasht changitib chopib yuribdi! Bir yashar qulunlar, uch yashar toylar, to'rt yashar g'o'nonlar, besh yashar do'nonlar! Sag'risiga uy tiksa bo'ladigan baytallar! Haybatli ayg'irlar!..* (Tog'ay Murod. "O't kishnagan oqshom".) Yuqoridagi so'zlar ushbu sohadan bexabar kishi uchun umumiy ot ma'nosini anglatadi. Aslida esa ushbu leksemalar otlarning yosh bo'yicha darajalanishini ifodalayapti. Boshqa kasbga oid atamalar ham ot bilan shug'ullanuvchi shaxs uchun o'z navbatida realiya hisoblanadi.

Do'konimiz guzarda bo'lib, bolg'a tovushi eshitilib turar edi. (Abdulla Qahhor. *O'tmishdan ertaklar*)

Guzar - qishloq yoki mahallalarning chorrahalarida joylashgan, choyxonalari, qassoblik, baqqollik kabi do'konlari bo'lgan obod gavjum joy. Realialar badiiy asarning milliy xususiyatini belgilaydigan asosiy vositalardan hisoblanadi.

Karvonsaroy darvozasining chap tomonida *ayvonlik* yangi do'kon, uning oldida o'tadigan anhor ustiga taxta qoqilgan; darvozaning o'ng tomoni - saroydan qayrilib chiqadigan anhor ustiga ham odamning belidan keladigan balandlikda kattakon taxta *so'ri* qilingan.

Ayvon - Uch tomoni berk, oldi ochiq xona.

So'ri - hovlida o'tirishga mo'ljallangan katta yog'och karavot.

Shu kuni peshinga yaqin ko'cha eshigi ochilib, kattakon dasturxon ko'targan bir bola, uning ketidan yangi safsar duxoba *paranji* yopingan bir xotin kirdi.

Paranji - musulmon ayollar yuzini berkitish uchun tutadigan mato.

Badiiy asarlarda mualliflar realiyalardan asar mazmunidan ham ko'ra unda tarixiy va milliy koloritni tasvirlash maqsadida, o'ziga xos bo'yoq, kolorit bilan ta'minlash uchun foydalanadi. Tush vaqti ayollar *bo'g'irsoq, qatlama, shirguruch* ko'tarib to'yladi. (Tog'ay Murod. Yulduzlar mangu yonadi.)

Bo'g'irsoq, qatlama, shirguruch - milliy taom turlari. To'y, marosimlarga pishirib borish odat hisoblangan. Hozirgi vaqtda ham ushbu an'ana ba'zi hududlarda kuzatiladi.

Chilla, urchuq, chimildiq, somsa, palov, manti, g'ilmind, holvaytar, sumalak kabi uy- ro'zg'or buyumlari va taom nomlari milliylik bilan bog'liq bo'lganligi uchun, boshqa millat vakiliga tanish emas.

Qadimdan xalqimiz dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanib kelishgan. Lakunalar bevosita xalqlarning amaliy faoliyat jarayonlari asosida namoyon bo'ladi. Ayollar paxta va jundan ip yigirib turli kiyimlar va gilamlar to'qishgan. Yigirish asbobi sifatida *urchuq* dan foydalangan. (Qo'rg'onning ichida bir necha qora uy qator tikilgan va bularning oldida yosh bolalar ikkovlashib tuya yungidan urchuq bilan ip yigiradilar. S. Ayniy. "Qullar") Shu o'rinda yana bir leksemaga to'xtalib o'tamiz, bu *chilla* leksemasidir. Chilla tutish milliy urf-odatlarimizdan biri bo'lib, chaqaloq tug'ilgandan, qiz turmushga chiqqandan, marhum ko'milgan kundan keyingi 40 kun muddat

tushunilib, urf-odatlariga ko'ra tashqi ta'sirlardan himoya qilinadi.

- Soqijon, sen ham *chiltan*larning biri, men oshib gapiribman. Bu fe'limga tavba qildim, - deb G'irotni Soqiga berib, qirq eshikli *chillaxonasiga* kirib, ko'kragini nam yerga berib, xafa bo'lib yotdi. (Go'ro'g'li turkumidan. Avazxon dostoni)

Chiltan - xalq orasida ins jinslarni shunday atashadi.

Chillaxona - qirq kun davomida bir joydan chiqmay, odamlardan yashirinib yolg'izlikda toat ibodat qilish.

Diniy tushuncha va tasavvurlar qadimdan paydo bo'lgan. Ayniqsa, arablar bosqinidan keyingi davrda musulmoncha urf-odatlar xalq ongiga singib qolgan. Shuning uchun ham hozirgi davrda qanday marosim va ma'raka bo'lsa, ma'lum darajada diniy xarakterda bo'ladi. Diniy tushunchalar yoki diniy marosimlar inson ruhiyati, dunyoqarashi yoki tushunchasiga qarab, shakllanadi. Misol uchun biron narsaga atab, yoki kasallikdan forig' bo'lsa, yoki biron falokatdan omon qolsa, albatta, Xudo yo'liga biron narsa atab, sadaqa beradi. Shunga o'xshash marosimlar hozir ham hayotimizda keng qo'llaniladi.

Tohir kekxa ota-onasi bilan iftor qilmoqda edi.(Pirimqul Qodirov. *Yulduzli tunlar.*)

Iftor - ro'zadorga beriladigan osh.

Iftorlik vaqtida biz har kun shinniga nonni botirib urib, uning ustiga mayiz boshqa meva-chevalarni yer edik.(M.Muhammadjonov. *Turmush urinishlari*)

Iftorlik - ro'zadorlar uchun tayyorlangan taom.

Ro'za tutish shohu malayga barobar kelgan majburiyat bo'lgani uchun, sunray va naqpra saroy ahlini saharlikka uyg'otmoqda edi.(Pirimqul Qodirov. *Yulduzli tunlar.*)

Saharlik I - ro'zadorning saharlik taomi;

Saharlik II – ro‘zadorlar uchun beriladigan osh, sadaqa.

Hosilning o‘ndan biri hisobida masjidga beriladigan ushr mohi ramazonda jon boshiga beriladigan *fitr*, imomga, mirobga, sartaroshga beriladigan kapsan.. qo‘yingchi, hammasi ana shu sho‘rlik chorakorga tegadigan to‘rttdan bir bo‘lak ustida. (M.Ismoiliy. *Farg‘ona tong otguncha*)

Fitri ro‘za – ro‘za oyida oiladagi jon boshiga beriladigan pul;

Yoramazon aytar edik ba‘zi kez,

Shom payti, chang–tutun qishloq ko‘chasi,

Pul oshimi, to‘qoch – olib chiqar tez,

Tonggacha jaranglar oydin kechasi. (Mirtemir. *Qishlog‘im*)

Yoramazon – ro‘za oyida yosh bolalar tomonidan eshikma–eshik yurib ijro qilinadigan qo‘shiq.

Bunda *iyd* va juma namozlari o‘qilmaydi. (A.Qodiriy. *Obid Ketmon*)

Iyd namozi – hayit kunida o‘qiladigan namoz.

Mulla chaqirish – marhum haqiga duo o‘qitish.

Mana, Farg‘onaning eng aziz, eng badavlat, eng xalqparvar odami – Sodiqjon boyvachcha yaqinda butun Qo‘qon xalqiga zakot berdilar. (Komil Yashin. *Hamza*)

Zakot – shariat hukmi bo‘yicha bir musulmon o‘z mol–mulkidan qirqdan birini sadaqa qilishi.

Otabek turib tahorat oldi va mehmonxonaga kirib, taroveh boshladi. (A.Qodiriy *O‘tkan kunlar*)

Taroveh – Ro‘za kunlari kechki, oxirgi namozdan keyin o‘qiladigan qo‘shimcha namoz, ro‘zadorlarning yig‘ilishib o‘qiydigan namozi.

Muayyan realiyada mazmun hamda uning emotsional–ekspressivlik xususiyati qanchalik ko‘proqni tashkil qilsa, uni izohlash yoki tushuntirish shunchalik murakkablashib boraveradi. Bunday paytda realiyaning kelib

chiqishi, etimologiyasiga ham e'tibor berish talab qilinadi. Surxon vohasi nikoh to'yi etnografizmlarida ham bu holat ko'zga tashlanadi. *Ētakjirtar, nonsindirar, patirjedi, to'nkiygizar, poyondo soldi, oyoqbosar, qo'l ushlatar, oynako'rsatar, sochsiypatar, eshikshipirdi* kabi etnografizmlarda so'zlarning hokim tobelik munosabati asosida birikkanligi yaqqol seziladi³⁶. Til taraqqiyoti bilan bog'liq ravishda bunday birikuvlar narsa-hodisalarning nomini ifodalashi natijasida so'zga aylangan. Shu bilan bir qatorda yasama etnografizmlar ma'lum qismi ikki asosdan tashkil topgan bo'lib, hokim tobelik munosabati mavjud bo'lmagan so'zlardan ham hosil bo'lgan. Masalan, *to'qqiztovoq, kampir o'ldi, jalogqizartirar* kabi yasama etnografizmlar tarkibidagi so'zlar mustaqil ma'noli so'zlar bo'lib, semantik jihatdan bir butunlikni tashkil etadi.

Shayx yuvinib hirqa kiydi. Bir kuni u aysh jomidan nush etayotib ko'chadan o'tib borayotgan janda kiygan ikki darveshni ko'rdi. Beliga zunnorni mahkam bog'lab kofirlarni o'zimdan xursand qilay. U hiyla bilan egniga xizrnikiga o'xshash yashil chakmon tashlab olgan bo'lib, o'z nafsini ana shu yashil rang bilan xursand qilib yuradi. Uni ushlab olib, soyaboni va tojini boshiga urdilar bo'yra to'nini esa buzib kuydirib yuboradilar. Chunki bu murid kiyadigan xirqa toza matodan bo'lib, u qizil yashil va sariq naqshlar bilan ziynatlangan edi. Egnidagi yashil libosing bilan shohni izla yo'ldan ozganlarga Xizr kabi yo'l ko'rsat. Zuxdu tasbehu ridongizdan uyat sizga! Kovush, salla va hassangizdan uyat sizga! Bu damda qo'lidagi hassasi xuddi uy ustuniga o'xshash uning gavdasini suyab qoldi. Bu masxaraboz o'z boshiga kungurali toj qo'ydi. Chunki menga toj nasib etgan, boshimda oltin tumog'a zar tojim bor. Beliga zunnorni mahkam tang'ib, bu tasavvuf peshvosi bo'lgan Shayxni kofir qiladilar. U mast holda but oldida sajda qildi, egnidagi pirluk xirqasini olovda kuydirdi va "Kalamullohni" o'tga tashladi. Ko'ylagiga rang barang go'zal naqshlar solingan bo'lib, ularda Rum va farang ustalarining jon chekib mehnat qilganliklari

³⁶ Kurbanazarova Nargis Shodiyevna "Surxondaryo vohasi to'y marosimi etnografizmlarining semantik tabiati va lingvomadaniy tadqiqi". Termiz 2021. 14-bet

ko'rinib turibdi. Bu tubantabiat yana shunga teng keladigan boylikni to'niga gir aylantirib tikib olgan edi. Yuz ming iltijo bilan egniga janda kiydi. Ammo uning qo'lidan janda kiygan devonani ishini qilish kelmaydi. Kiyim tikuvchi o'z ustaxonasiga borib shoh kiyimi uchun zarbof to'n tikmoqqa ish boshladi³⁷. Matndagi milliy xos so'zlarni birma-bir ma'nosini izohlaymiz.

Hirqa – dag'al matolardan, qurab tikilgan libos, darveshlar kiyimi. Juldur kiyim. Janda Darveshlar va qalandarlarning uloq quroq to'ni.

Zunnor – (arabchilvir) charmdan yasalgan maxsus kamar belbog' hisoblanadi. Arab xalifaligi davrida musulmon davlati hududida yashab boshqa dinga e'tiqod qiluvchilar asosan (yahudiylar, xristianlar) musulmon emasligining belgisi sifatida zunnorni taqib yurgan, va bundan ular yaqqol ko'zga tashlangan.

Chakmon – odatda jun matodan tikiladigan erkakcha uzun to'n bo'lib, tozalangan qamish cho'pidan to'qilgan choponni shunday nomlagan.

Kovush – poyafzal turi, odatda maxsi bilan yoki sarpoychang kiyiladigan oyoq kiyim turi hisoblanib o'zbeklarning milliy oyoq kiyim turidir.

Salla – namozxon erkaklar boshiga kiyadigan, yoki o'raydigan uzun oq matodan iborat

Hassa – Qo'lda tutib, tayanib yurish uchun mo'ljallangan, silliq qilib ishlangan yog'och hisoblanadi

Zarbof to'n – zarli ip va naqshlar bilan tikiladigan to'n. Mazkur so'zlar boshqa madaniyat, boshqa din vakili uchun realiya hodisasi sifatida gavdalanadi. Bunday vaziyatlarda tushunmovchilikni bartaraf etish uchun izohlash yaxshi samara berishini aytib o'tish lozim. Har bir xalqning badiiy asarlariga xos milliy so'zlar o'sha xalqning milliy boyligi hisoblanadi, va mavqeyini oshiradi. Negaki, tarjimada qiyinchilikka uchraydigan so'zlar o'z holicha izoh bilan boshqa tillar lug'atiga kirib boradi.

³⁷ Alisher Navoiy "Lison ut-tayr" nasriy bayoni Toshkent – 2005. G'afur G'ulom 522-bet

3.2. O'zbek xalq dostonlarida realiya ifodasi

Xalq dostonlarida maishiy hayotimizda muhim o'rin egallaydigan oilaviy-maishiy marosimlar o'z badiiy ifodasini topgan. Xalqimizda bu turdagi urf-odatlar talaygina va shunga o'xshash bir qator urfga aylanayotgan udumlar ham mavjud. Qadimda ota-bobolarimiz yashagan davrda ham to'y marosimlari, udumlar keng nishonlangan. Ushbu urf-odatlarining nomlari tilshunoslik nuqtayi nazaridan boshqa xalqlar uchun vujudga keladigan realiya hodisasini xalq dostonlari misolida tadqiq qilinadi.

Ro'mol bog'lash – Sovchilik bilan bog'liq “ro'mol bog'lash” udumi qizning boshini “band qilish”, ya'ni fotiha qilishni ramziy ifoda etadi. “Ro'mol o'rash” marosimidan so'ng bu qizga boshqa uydan sovchi kelmagan.

Sovchilikning dastlabki bosqichi “Alpomish” dostonida shunday tasvirlanadi. Unda yetti qalmoq bahodirlarning onasi Surxayl kampir Qorajon uchun Barchin yashaydigan xonadonga tashrif buyuradi. Bu jarayon dostonida Surxayl tilidan keltirilgan quyidagi she'riy parchada o'z ifodasini topgan:

O'zbeklarning yaxshi qizi bor bo'lsa,

Atashtirib *ro'mol* berib kelaman.

O'zbeklarning yaxshi qizi bor bo'lsa,

Boshi bo'shmi deyin, avval so'rayin³⁸.

“*Kampir o'ldi*” marosimi – nikoh to'yining bir qismi hisoblanadi. Bu marosim ba'zi joylarda kelinning uyida, ayrim hududlarda kelin kuyovnikiga olib kelingandan keyin amalga oshirilgan.

“*It irillar*”– Bunga ko'ra, bir necha ayollar itga o'xshab irillab, kuyovning chimildiqqa kirishiga ruxsat bermagan. It holatiga kirib kuyovning oldini to'sishgan. Kuyov ularga nimadir hadya bergach, xotinlar uning chimildiqqa kirishiga qarshilik ko'rsatishmagan. Bunda it himoyachi ruh ramzini ifoda

³⁸“Alpomish” xalq dostoni Tosh 2014 Tafakkur 420-bet

etgan³⁹, “choch siypatar”, “qo‘l ushlatar” kabi marosimlar ham to‘y tomosha tugagandan so‘ng bajarilgan. Hozir ham Surxondaryo viloyatining ko‘pgina hududlarida qo‘llanilib kelinadi.

Chimildiq - kelin-kuyovni magik himoya qilish, ularning baxtli, serfarzand bo‘lishi uchun yasalgan ritual buyum⁴⁰.

“Alpomish” dostonida marosimlar kelin, ya’ni Barchinning uyida amalga oshiriladi: “Baxmal o‘tovda *chimildiq* tutib, kuyov navkarlari bilan kuyovni kirgizmoqchi bo‘lib, bir necha xotinlar “kampir o‘ldi” bo‘lib, o‘lganiga bir nima olib, “it irillar” degan rasmini qilib, bunga ham bir nima berib, har zamon salom solib, uydan ichkari kirib, *chimildiq*da o‘tirib, oldiga dasturxon solib, qo‘ylarning to‘shini pishirib olib kelib, bularning oldiga qo‘yib, xo‘p yeb to‘yib, kuyov navkarlarga to‘ppi, ro‘mol, sarpoylar berib, hammasi o‘z rasmi-qa’dasini qilib, kuyov navkarlar chiqib, mazgiliga - joy joyiga qarab ketdi. Barchinni bekning qoshiga olib kelmoqchi bo‘lib, ko‘p qizlar o‘rtaga olib, baxmal qoplagan oq kigizga solib, “qadimgi rasmimizni qilamiz”, - deb qizlar. ko‘tarib, ko‘targani quvvati kelmay halak bo‘lib, uytib-buytib olib kelib, Hakimbekning qoshiga olib kirib, xotinlar rasmini qilib, “choch siypatar”, “qo‘l ushlatar”ini qilib, bir necha yangalar sho‘xlik qilib turib: “nima qilsangiz, ixtiyor o‘zingizda”, deb sho‘xlik bilan bir nechasi javob berib, har qaysisi o‘z mazgiliga ketdi. Bu o‘tov ikkoviga tanho tegib qoldi⁴¹.

To‘qqiz tovoq - Kelinning kuyov tomonga yuborgan to‘qqiz tovoqdan iborat har xil noz ne’matlari. Alpomish dostonida ushbu odat quyidagicha ta’riflangan:

To‘y oxir bo‘lib, ko‘pchilik uyiga tarqab ketgach, yigitlar kuyovning atrofini o‘rab, kuyov navkar bo‘lib turgan. Shunda:

O‘zbekning rasimi shunday buladi:

³⁹ Asqar Musaqlulov O‘zbek xalq lirikasi. Monografiya Buxoro 2014 236- bet

⁴⁰ Qarang. Nikohdan so‘ng amalga oshiriladigan urf- odatlar Sharipova Maxbuba Baxshilloevna BuxDU O‘qituvchi Gulasal Shavkat qizi Farmonova BuxDU talabasi Scientific progress volume 2 | issue 7 | 2021 issn: 2181-1601 1139-bet

⁴¹ Alpomish” xalq dostoni Tosh 2014 Tafakkur 425- bet

Qizu juvon – bari yig‘ilib keladi,
Ayollari to‘qqiz tovoq qiladi,
Kuyovning oldiga shunday boradi,
Opborgan taomin nukarlari eb,
Tovog‘iga tanga–tilla soladi.
Ne bir xotinlar vaqti xush bo‘p boradi,
Ancha tanga bunda unum qiladi⁴².

“Qiz olib qochar” yoki “qiz yashirar” – o‘zbeklar orasida nikohdan oldin o‘tkaziladigan qadimiy udumlardan biri hisoblanadi. Respublikamizning ba‘zi qishloqlaridagi odatga ko‘ra, qishloq qizlari va kelinlari turmushga chiqayotgan qizni opqochib, biror bir xonadonga yashirishadi. Kelin yangalar qizni rosa izlashadi⁴³. “Alpomish” dostonida tasvirlanganidek:

O‘rtaga o‘t yoqib qizlar turadi,
Salom solib bekni boshlab boradi.
Shu zamonda uyga yaqin bo‘ladi,
Uy ichinda katta odamlar turadi,
Sanam qizlar bari yig‘ilib qoladi,
Barchinoyni bul o‘rtaga oladi,
Qadimgi rasimi shunday bo‘ladi,
Barchinoyni qiz opqochdi qiladi.
Ne kelinlar yurib qizni so‘radi,
Bir erdan bularni topib oladi⁴⁴.

Bunda yangalar kelinni yashirganlarning talabini qondirib, ularga ziyofat uchun pul yoki sarpo–sidra bermagunicha, kelin yashirilib qo‘yilgan xonadon

⁴² “Alpomish” xalq dostoni Tosh 2014 Tafakkur 470–bet

⁴³ Худойқулова Л. Сурхон воҳаси совчилик қўшиқлари ва айтимлари. / Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. Таниқли фольклоршунос олим, профессор О.Сафаров таваллудининг 70 йиллигига бағишланган илмий мақолалар тўплами. 2–китоб. – Т.: Фан, 2010. – Б.157.

⁴⁴ “Alpomish” xalq dostoni Tosh 2014 Tafakkur 471–bet

aytilmagan. Berilgandan so'nggina, ular kelinni olib kelib berishgan.

“Erga ko'rsatdi”– kelinning otasi bir qo'yni so'yib, kuyovni chaqirib, ziyofat bergan, unga va yaqinlariga sarpolar ulashgan. So'ngra yo'lga otlangan kelin kuyovlarga ota “oq fotiha” beradi. Alpomish dostonida Boysarining Barchinni uzatayotgandagi so'zi, ota sifatidagi fotihasi shunday berilgan:

Jonim bolam, Barchin, ko'ngling bo'lmagin,

Otam qoldi, deb sen xafa bo'lmagin,

Ko'p yashagin, ko'p yilgacha o'lmagin,

Yaxshilik ko'r, yomonlikni ko'rmagin

Tengquringga qo'shdim senday bolamni⁴⁵.

Dostonlarda milliy madaniyatni ifodalovchi so'zlardan bosh kiyim turlarini ko'rib chiqamiz.

Kuloh – bosh kiyimi hisoblanib tepa tomoni ingichkalashib chiqqan bosh kiyimi (asosan, darvesh, qalandarlar kiyadigan uchli qalpoq hisoblanadi).

Ravshan dostonida bu so'z aynan Ravshanning bir yurtidan ikkinchi yurtga kelgandagi holati va aslzodaligiga ishora qilish maqsadida qo'llangan. Ya'ni doston qahramoni o'zga elda misoli qalandarday yuribdi, ammo uning savlati va o'zini tutishi aslzoda ekanligi bilinib turadi. Zarli so'zining esa kuloh bilan birga qo'llanishi uning o'z yurtida bekligi, badavlatligiga ishora tarzida foydalanilgan:

“Zulflari tilladan, zarli kulosi,

Topilmaydi shirin jonning hiylasi,

Bilmayman, qayerdan kepti bog'ingga,

Qaysi yurtda, qanday shohning bolasi⁴⁶”

Dostonda qalpoq leksemasi ham o'ziga xos alohida o'rin tutadi.

⁴⁵ Alpomish” xalq dostoni Tosh 2014 Tafakkur 480-bet

⁴⁶ “Ravshan” xalq dostoni Tosh. 2011 Sharq 320-bet

Qalpoq – yupqa matodan qilingan bosh kiyimi ma’nosini anglatib, har qanday to’qima yoki matodan tikilgan bosh kiyim hisoblanadi. Narsalar ustini berkitib, qoplab turadigan soyabon yoki qopqoqdir. Masalan, “Kunlardan bir kuni Go’ro’g’libek parilar bilan o’tirib edi, Ravshanbek ayni o’n uch yoshida, zarli qalpoq boshida, yuzi yarqirab, kokili tirqirab eshikdan salom berib bordi: “Bizning yutting yasmini bilmagan, hali eshitganing yo’qmidi, Zulxumoy yomon bo’pti yashamaguy, shu vaqtda yigitlayga qalpoqni yasm qilib sotadi, qalpoqning oldini ming tanga, oyqasini besh yuz tangadan sotadi”

Dostonda ushbu so’z xalqimizning milliy bosh kiyimini ifodalagan. Bozorni ta’riflashda qalpoq bozori tilga olingan. Bundan tashqari dostondagi boshqa obrazlar orqali ham qalpoq so’zini uchratishimiz mumkin. Bu atama bugungi kunda ham qo’llanilish chegarasini saqlab qola olgan.

Telpak – tepasi aylana, doira shaklga ega, tekis mo’yna qishki issiq bosh kiyimi hisoblanadi. Xorazmda cho’girma, ba’zi joylarda qadimiy bosh kiyimi sifatida bo’rk deb ham ataladi.

“Qayerda qalpoq bozori,
Qoziqda telpak bozori,
Qatlama, chalpak bozori,
Tupak ham bargak bozori,
Qalpoq bozori qaysidi

Bargak – Ayollar peshonasiga, ko’ksiga taqadigan oltin yoki kumush tangalardan tuzilgan bargnusxa ziynat buyumi, taqinchoq ma’nosini anglatadi. Yuqoridagi misolda bargak so’zi ham keltirilgan.

Dastor – esk.ayn. salla. Salla boshga o’raladigan erkaklar bosh kiyimi.

Hozirgi kunda ushbu so’z shakl jihatidan o’zgarishga uchramagan, lekin qo’llanilish doirasi chegaralangan. Dostonda bu leksema Ravshan tilidan aytilgan misralarda keltirilgan

“Boshima zarlidan *dastor* o‘rayman,
Tush ko‘rganda yaxshilikka yo‘rayman,
Hayron qoldim elatingning rasmiga,
Ena sendan shu bir gapni so‘rayman ”

Po‘ta – *salla*, *ro‘mol*; *dakana*. Doston matnida bu atama bosh kiyim ma‘nosida kelgan. “Xasanxon o‘g‘lini tanimadi. Nima uchun? Ravshanxon takpo‘shi to‘ni bilan *po‘ta* boshida maktabda o‘qir edi. Aslo o‘g‘lini bu sha‘n-u shavkatda ko‘rgani yo‘q edi. Xasanxon darvozbonga aytdi: – E jo‘ra. Mana bu bola qanday manglayi xudo suygan odamning bolasi ekan?”

“Alpomish” dostonida ham *po‘ta* leksemasi uchratishimiz mumkin. Ammo unda bu atama shunday keltirilgan:

“Belingga boylabsan zarrin *po‘tangdi*,
Xudoyim kechirgay qilgan xatongni,
Xafa qilib ketma menday otangdi,
Xabar bergin, qo‘zim, qayda borasan?”

Po‘ta – belga aylantirib bog‘lanadigan qimmatbaho, uzun belbog‘ hisoblanadi. Bu misolda leksemaning ikkinchi ma‘nosi anglashilgan. Ya‘ni, belga bog‘lanadigan kamar, belbog‘. “Ravshan” dostonining o‘zida ham bu atama ikki ma‘noda: boshga o‘raladigan kiyim va belga bog‘lanadigan kamar ma‘nosida ifodalab kelingan.

Ro‘mol – yuzga tutiladigan mato: sochiq, ro‘mol (*cha*) ayollar boshiga o‘raydigan, odatda, to‘rtburchak shakldagi mato.

“Ro‘mol bilan shipirib,
Yuziga urgan garddi.
Kimga aytsin bek Ravshan,
Ko‘nglida ichki darddi.

Tomosha qing yoronlar,
Ravshanxonday bir marddi”
Yoki yana bir o‘rinda:
“Men qachon borarman sening qoshingga
Borib mehmon bo‘lsam, oppoq to‘shingga,
Zarli ro‘mol yarashmasmi boshingga,
Yor, aylanay, qalpoq tikkan qo‘lingdan”

3.3 Maqollarda realiya ifodasi

Lingvomadaniyatshunoslik obyekti hisoblangan birliklardan biri xalq maqollaridir. Xalq maqollari – xalq og‘zaki ijodining asrlar osha avloddan avlodga, tildan tilga o‘tib, kamol topib kelayotgan janrlaridan biri hisoblanadi. Ular ko‘p asrlar davomida xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy tajribalari, hayotiy kuzatishlari asosida yuzaga keladi. Maqollarda xalqning hayot tajribasidan orttirgan saboqlari, xulosalari aks etadi. Maqollar ham folklorshunoslikda ham tilshunoslikda o‘rganiluvchi paremiologiya sohasining asosiy qatlami hisoblanib, u ongning o‘ziga xos kognitiv mikrostrukturasi tashkil qiladi. O‘z semantikasida madaniyatning bir bo‘lagini aks ettiruvchi til birligi–lingvokulturema va axborotni saqlovchi, uzatuvchi va qayta ishlovchi kognitiv mexanizm sifatida namoyon bo‘lib keladi.

“Realiya” bu – muayyan xalqning hayoti, turmushi, madaniyati, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti uchun xarakterli bo‘lgan predmetlar, hodisalar va obyektlarni nomlovchi, boshqa xalqlar uchun unchalik tanish bo‘lmagan yoki begona bo‘lgan, ularning tillarida aniq muqobili bo‘lmagan, milliy koloritni ifodalovchi so‘zlar yoki so‘z birikmalari; muqobilsiz leksika turlaridan biri. Demak, milliy realiyalar, ko‘pincha, mahalliy xalqqa xos pul, masofa–uzunlik birliklari, ro‘zg‘or ashyolari, kiyim-kechak, yegulik–ichkilik va h.k. tushunchalarni anglatadigan so‘zlardan tarkib topishini yuqorida ko‘rib chiqdik.

Shu tavsifdan kelib chiqqan holda, aynan, o'zbek xalqining o'ziga xos milliy kiyimlaridan hisoblangan "to'n" realiyasi ishtirokidagi maqollarga nazar tashlaymiz. Bilamizki, mahalliy xalqlar kiyimlarining o'ziga xosligi azaldan iqlimiy, maishiy sharoitlar va urug'-qabila bilan belgilanar edi.

XIX asrdayoq kiyim (to'nlar, ko'ylaklar, yaktaklar) milliy xususiyatlarga ega edi: keng, butunligicha tikilgan, uzun, tananing barcha qismini yopadigan holatda bo'lgan. An'anaviy milliy erkaklar kiyimi belbog', qavilgan issiq to'n - chopon, do'ppidan iborat edi. To'n yengil yoki issiq, paxta qo'shib qavilgan bo'ladi. To'n hozirda ham o'zbek milliy liboslarining ajralmas qismi bo'lib, xalqining hayoti va an'alariga chuqur kirib turadi.. To'n nafaqat o'zbeklar, balki boshqa Markaziy Osiyo xalqlarining ham milliy ust kiyimidir. To'n so'zining etimologiyasiga qaraydigan bo'lsak: "To'n - oldi ochiq ustki milliy kiyim hisoblanadi. Bu so'z qadimgi turkiy tilda to'n tarzida talaffuz qilinib o'sha davrlardayoq o: unlisining cho'ziqlik belgisi yo'qolgan: to:n - ton. Qadimgi turkiy tilda bu so'z, umuman, "kiyim" ma'nosini anglatgan, hozirgi ma'nosi torayish, xoslanish natijasida yuzaga kelgan. Aynan, ana shu milliy kiyim bilan bog'liq bir qator o'zbek xalq maqollari mavjud. Bu maqollarni tahlilga oladigan bo'lsak, to'n realiyasi ularning har birida alohida ma'no anglatishini kuzatishimiz mumkin. Masalan, "To'yim o'zdi, to'nim to'zdi" maqolining zamirida o'zining hol-qudratiga qaramay, "nom chiqar"ga to'y- ziyofatlar qilib, oxirgi bor-budidan ajrab, qiynalib qoladigan odamlarga nisbatan istehzo va kinoya bor. "Boy to'y tuzar, kambag'alning to'ni to'zar" maqolida ham aynan shu ma'no bor. "To'yga borsang to'yib bor, To'rqa to'ningni kiyib bor" (To'rqa to'n shoyi matodan tikilgan to'n) maqolida esa o'zbek xalqining azaldan to'y-tomoshalarga boyligi, urf-odatlarini va to'y marosimlarini o'tkazish jarayonida o'zining milliy kiyimlarini kiyib, yasangan holda dasturxonini milliy taomlari bilan bezatib nishonlashi aks etgandir. Mana shunday marosimlarda mehmon chaqirilganda bizning xalqimiz yangi liboslarini kiyib borishi ko'rsatilgan. Bu maqolda to'n realiyasi umumiy ustki milliy kiyimni ifodalaydi. "Safarga chiqsang, bilib chiq,

yo'l to'ningni kiyib chiq" maqolida ham uzoq yo'lga safarga otlanganda, albatta, ob-havoga moslab bir nechta kiyimini olish yoki o'sha borayotgan muhitiga mos tayyorgarlik ko'rib chiqish nazarda tutilgan. "Maslahatli to'n tor kelmas", "Keng to'n to'zimas" maqollari esa birdamlikka, biror bir masalaning yechimini ko'pchilik (ayniqsa, tajribali, tadbirli, ko'pni bilganlar) bilan, yoshi ulug' insonlarning maslahati asosida hal qilish kerakligini uqtiruvchi maqollar hisoblanadi.

Oqko'ngil, dilida kiri yo'q, beg'araz, bo'lar-bo'lmasga kek saqlamaydigan, ochiq ko'ngil, yaxshi niyatli, har bir narsa va kimsaga, holatga xolisona munosabatda bo'ladigan ko'ngli yumshoq, yuvosh insonlarga nisbatan "Oqko'ngilning oti ham ozmas, to'ni ham to'zmas" maqoli ishlatiladi. Buni quyidagicha talqin qilish mumkin: oqko'ngilli inson birovlariga hasad qilmagani uchun, o'zgalar qadriyatini toptamagani uchun "To'ni to'zimas", ya'ni unga isnod tegmaydi, nomiga dog' tushmaydi. "Oti ozmas" esa "To'ni to'zimas" birikmasiga parallel o'xshatma tarzida keltirilgan. "Yomondan to'n kiysang, to'yda "to'nim ber", deydi" va "Yomon otga - ming qamchi" ma'nodoshli maqollarda esa bergan va'dasida turmaydigan, aldaydigan, aytgan gapidan tonadigan, g'araz niyatli nopok kimsalarga nisbatan qo'llangan. Ota-bobolarimiz shunga o'xshash maqollar orqali kishilik jamiyatidagi o'zaro munosabatlarda yaxshi odamlarni yomon odamlardan farqlay bilish va shunga yarasha ish tutish lozimligini ta'kidlab kelishgan. Hayot taqozosiga ko'ra, xalqimiz orasida boy va amaldorlar azaldan kambag'al, beva bechoralarni mensimay, odam o'rnida ko'rmay, mazax qilib kelgan. Mana shu munosabatni ifodalash uchun "Tengi tengi bilan, to'n yengi bilan" maqoli ishlatiladi. "Tengi tengi bilan, tezak qopi bilan", "Odam odam bilan, pista bodom bilan" maqollari ham bu maqolning variantidir. Bundan tashqari mazkur maqollar xalq orasida: "Har kim o'z teng-to'shi bilan muloqotda bo'lishi, masalan, do'stlashishi, ulfatchilik qilishi, hazillashishi, quda-anda bo'lishi" lozimligini ta'kidlash ma'nosida ham qo'llanadi.

Bosh omon bo'lsa do'ppi topiladi maqolidagi do'ppi o'zbek millatining milliy

bosh kiyimi hisoblanadi. Bu bosh kiyim qadimdan turkey xalqlar orasida keng tarqalgan. Boshqa xalqlar do'ppilaridan o'ziga xos shakli, bezagi bilan farqlanadi. Do'ppi nafaqat kiyimning bir jihati, balki xalq madaniyatining tarkibiy qismidir. Bu realiya bilan bog'liq barqaror birikmalarni xalq og'zaki ijodida va badiiy adabiyotlarda ham ko'rishimiz mumkin: *Sizni qarang, men «to'rt» olsam, do'ppimni osmonga otgan bo'lardim!* (O.Yoqubov. «Muqaddas»). Bu frazema orqali biror voqeadan juda quvonish, xursand bo'lish, behad sevinish ma'nolari ifodalaniib kelgan. Yana bir do'ppi realiyali iborani tahlilga oladigan bo'lsak, *sallani ol desa, kallani olmoq* frazemasidagi *salla* komponenti qo'llanmasligi tufayli do'ppi leksemasi bilan almashtirilgan, natijada do'ppini ol desa, kallani olmoq shaklidagi yangi frazema hosil bo'lgan. Do'ppiga qo'shib faqat boshni emas, oyoq-qo'lni ham qiyma–qiyma qilib olib keladi (T.Malik. “Davron”). Ushbu gapda *sallani ol desa, kallani olmoq* iborasining ijodiy o'zgartirilganini ko'rishimiz mumkin. *Salla* so'zi o'rniga – do'ppi so'zini qo'llagan bo'lsa, – *kalla* so'zi o'rniga – bosh so'zini o'zgartirib qo'llaydi. Yozuvchi bu ibora orqali ayrim kishilarning boshliqlarga yoqish maqsadida berilgan ko'rsatmani me'yoridan oshirib bajarish holatini kinoya bilan chiroyli tarzda ifodalab bergan.

Hashar qildim-uy qurdim, Bunda ko'p hikmat ko'rdim. Hashar o'zbek xalqiga xos bo'lgan udum sanaldi. Ya'ni uy ko'tarmoqchi (qurmoqchi) bo'lgan yoki mamalakat obodonchiligi yo'lida qilinadigan umumxalq mehanatidir. Bizga ma'lumki, hasharga do'st-u birodarlar, yaqin qarindoshlar yordamga keladi. Hasharda birdamlik, ahillik kabi samimiy tuyg'ular o'z aksini topadi. Shuning uchun, hashar qilgan inson ko'p hikmatlarning guvohi bo'ladi. Ya'ni do'stlarining sadoqatini, mehribonligini ko'radi. Bu maqolda etalon sifatida olingan *hasher* so'zi lingvomadaniy birlik sanaladi.

Holva degan bilan og'iz chuchimas. Bu maqol mazmunan “Olma pish, og'zimga tush” maqoliga sinonim. Zamirida, dangasalik, tayyorga ayyorlik kabi xislatlarni qoralab, mehnatsevarlikka, o'zi ishlab, halol mehnat bilan pul topishga

chorlaydi. Ya'ni inson biror nimani orzu qilganligi bilan u amalga oshib qolmaydi, uning amalga oshishi uchun ,albatta, harakat qilish kerakligi uqtirilmoqda. Etalon bo'lib kelgan so'z "holva" o'zbek milliy shirinligi hisoblanadi.

Kelinni kelganda ko'r, sepini yoyganda ko'r. O'zbek xalqining to'yi hech bir xalqda takrorlanmas urf-odatlariga boydir. Ayniqsa, nikoh to'ylari o'zgacha shukuh bilan o'tadi. Bu shukhga kelin yanada o'zgacha zavq bag'ishlaydi. Xalqimiz hamisha azal-azaldan mukammallikka intilgan. Shuning uchun ham kelinni shunday mukammallik darajasida ko'rishga intilgan. Ya'ni epli ham sepli ham bo'lishini xohlaganlar. Kelinning sepi uning ziynati, fayzi sanaladi. O'zbek xalqida qizga, ya'ni bo'lajak kelinga sep, sarpo-surug' qilish odati katta ahamiyatga ega.

Bosh yorilsa, do'ppi ostida. Varianti: *Bosh yorilsa, bo'rk ichida.* Bo'rk - charmdan, qorako'ldan yoki sherozi mo'ynadan silindrsimon qilib tikilgan erkaklar qishlik bosh kiyimi hisoblanadi. Do'ppi realiyali bu frazemada aybni, dardni o'zgalar ko'zidan nari tutish, bildirmaslik, sirini bermaslik. Bardosh, chidam, oqil-fozillik, uzoqni o'ylash, bosiqlik namunasi. Ibora kishining sabr-toqatli, chidamli, matonatli bo'lishga chaqiradi. "Bo'zchi belbog'ga yolchimas, kulol mo'ndiga". Realিয়া hisoblangan belbog' o'zbek xalqining milliy libosi bo'lib, belga bog'lanadigan, to'rtburchak shaklidagi gulli yoki gulsiz chetlari tikilgan mato parchasi; qiyiq; qiyiqcha.

Mo'ndi - ko'va, ko'vacha bo'lib, unda zig'ir yog' saqlangan, suv tashib kelingan, ammo undan suv ichmagan. Bu maqolni izohlaydigan bo'lsak, o'tmishdagi ijtimoiy tengsizlik, haq-huquqsizlik hukm surgan zamonlarda bevosita moddiy boyliklar yaratgan mehnatkashlar o'z mehnatlari samarasidan bahramand bo'la olmaganliklari, bu narsa yuqoridagi singari bir qancha maqollarda o'z aksini topgan: "Kulol mo'ndidan suv ichar". Maqolda kulol o'zi yasaydigan idish-tovoqlarga azbaroyi yolchimaganidan, mo'ndining o'zidan suv ichishga majbur bo'ladi, degan ma'no yotadi.

Maqollarimiz xalqimizning hayotiy kuzatishlari va tajribalari asosida

yuzaga kelar ekan, uning donoligini, turmush tarzini, muomala madaniyatini ifoda etuvchi ma'naviy xazina sifatida asrlardan asrlarga o'tib kelaveradi, madaniyat tashuvchi vazifasini bajaraveradi.

Inoq oilada beshik bo'sh bo'lmas maqolini tahlilga oladigan bo'lsak, ushbu maqoldan o'zbek millatining bolajon xalq ekanligini anglatib turadi. Beshik bilan bog'liq marosimlar qadimdan nishonlanib kelinadi.

Beshik to'y — to'y bilan bog'liq marosim bo'lib, ayrim hududlarda farzand tug'ilgandan so'ng bir oy muddatda, ayrim joylarda esa, bir yildan so'ng, "beshik bolasi – bek bolasi" ekanligini bildirish uchun qilinadi. Sunnat to'y ham to'y bilan bog'liq marosim bo'lib, u bolani musulmon bo'lganligini ommaga e'lon qilish uchun nishonlanadi. Avvallari 3–5 kun davom etgan, hozir esa bir kungina nishonlanadi. *Beshikerti* – qiz va yigitning beshikdaligidayoq unashtirilib qo'yilishiga aytiladi. Ushbu marosim asosan qarindoshlar orasidagi nikohning dastlabkisi hisoblangan.

O'zbek millatiga xos uy-ro'zg'or buyumlariga oid realiyalar, o'choq va u bilan bog'liq milliy realiya birliklar ishtirokidagi barqaror birikmalarning kishi ongida qanday lisoniy manzarani hosil qilganini ko'rib chiqamiz. Manbalarda keltirilgan quyidagi barqaror birikmalarning izohlariga to'xtaladigan bo'lsak: o'choq milliy realiyasi ham xalqimiz maqollarida ko'p kuzatiladi. Jumladan, "*Qo'li – kosov, sochi – supurgi*" maqoli azal-azaldan oilada butun kuch-quvvatini, mehnatini, borini ayamaydigan, o'z sog'lig'iga befarq, mehnatkash ayollarga nisbatan ishlatilgan. "*Kosov uzun bo'lsa, qo'l kuymas*", "*Og'a – ining omon bo'lsa, hech kim tegmas*" maqollarida "Aka-ukalaring, opa-singillaring, yor-u do'stlaring bilan inoq bo'lishini, yaxshi yomon kunlaringda ular sening quvonchingga ham, qayg'ungga ham sherik bo'lishini, qo'ldan kelgan yordamlarini ayamastligini, ko'plashib, ko'kraklarini qalqon qilib, seni yovdan, xavf-xatardan himoya qilishini" aytib nasihat qilgan Kosov – o't, olovni to'g'rilash, tortish va sh. k. uchun ishlatiladigan yog'och yoki temir tayoq hisoblanadi. Avvallari deyarli barcha ayollar o'choqlarda ovqat pishirib,

tandirlarda non yopishgan. Hozirda esa bu holat asosan qishloq hududlarda kuzatiladi. Aynan shu jarayonlarda milliy realiya sanalgan bu anjomdan foydalanishgani uchun xalqimiz orasida kosov bilan bog'liq ana shunday maqollar uchrashi bejiz emas.

“Qish o'chog'i tor, tur uyingga bor” maqolining ekvivalenti sifatida “Qishning kuni qirq turli, qirqovi ham qiliqli”, “Qish qilg'in qilmay qo'ymas, yoz yo'rig'in yo'ymay qo'ymas”, “Qishda o'choq o'ziga tortar” maqollarini ko'rsatish mumkin. Shuningdek, qishda keng uylar, keng xonadonlar ham tor bo'lib qolishini Qish kunida xonadonlar oila, bolachaqalari bilan isitiladigan joyga, uyga yig'ilishib, qisinib-qimtinib yashashadi. Shunday paytlarda ortiqcha odam ortiqchalik qiladi. Mazkur maqol bilan madomiki shunday ekan, qish kunida huda-behudaga birovnikiga boravermaslikni, borgan chog'ida ham, haddan tashqari uzoq o'tirib qolmay, yo yotib qolmay, o'z uyiga borsin, degan ma'noda nasihat qilingan. “Qish o'chog'i tor, tur uyingga bor” maqolida *o'choq* milliy realiyasi qo'llangan” “O'choq – orqa va yon tomonlari yopiq bo'lib, ichiga o't yoqiladigan, ovqat pishirish uchun ustiga qozon o'rnatiladigan qurilma (Loy o'choq. Yer o'choq. Temir o'choq) deb izohlangan

Bob bo'yicha xulosa

Har bir xalqning badiiy asarlariga xos milliy so'zlar o'sha xalqning milliy boyligi hisoblanadi, va mavqeyini oshiradi. Negaki, tarjimada qiyinchilikka uchraydigan so'zlar o'z holicha izoh bilan boshqa tillar lug'atiga kirib boradi. Xalq dostonlarida maishiy hayotimizda muhim o'rin egallaydigan oilaviy-maishiy marosimlar o'z badiiy ifodasini topgan. Xalqimizda bu turdagi urf-odatlar talaygina va shunga o'xshash bir qator urfga aylanayotgan udumlar ham mavjud. Qadimda ota-bobolarimiz yashagan davrda ham to'y marosimlari, udumlar keng nishonlangan. Ushbu urf-odatlarining nomlari tilshunoslik nuqtayi nazaridan boshqa xalqlar uchun vujudga keladigan realiya hodisasini xalq dostonlari misolida tadqiq qilinadi. Lingvomadaniyatshunoslik obyekti hisoblangan birliklardan biri xalq maqollaridir. Xalq maqollari – xalq og'zaki ijodining asrlar osha avloddan avlodga, tildan tilga o'tib, kamol topib kelayotgan janrlaridan biri hisoblanadi. Ular ko'p asrlar davomida xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy tajribalari, hayotiy kuzatishlari asosida yuzaga keladi. Maqollarda xalqning hayot tajribasidan orttirgan saboqlari, xulosalari aks etadi

XULOSA

O'zbek tilshunosligida tilni o'zbek xalqining urf-odatlarini, tarixiy an'analari va ma'naviy olami bilan bog'liq ravishda o'rganishga bo'lgan qiziqish kuchayib bormoqda. Hozirgi zamon tilshunosligida milliy xos so'zlar tushunchasi u yoki bu til va madaniyatga mansub bo'lgan verbal yoki noverbal ifodalanadigan tushuncha, boshqa madaniyatlarda ifodalanmaydigan lisoniy vositalar, variantlar, invariantlari sifatida talqin qilinadi.

Har bir millat undagi urf odatlar yashar ekan realiyalar ham yuzaga kelaveradi. Marosim udum nomlari yangilangan sayin tilda realiyalar soni ortaveradi. Realialar tilning lug'at boyligi, frazeologik qatlami, obrazli ifoda va o'xshatishlarning mazmun-mohiyatini yoritishda ham ahamiyatlidir. Realialar har bir davrda, har bir xalqlar aro muloqotda mavjud; Ijtimoiy muloqot tizimida muayyan obyektlar, masalan, predmet, harakat, hodisa, matn, tasvir, hayvon, o'simlik, rang, raqam va hokozalar ramz bo'lib xizmat qiladi. Ramzlar moddiy, tushunchaviy, so'zli, tasviriy bo'lishi mumkin;

Stereotip tushunchasi haqiqatdan ham, ma'lum bir millatning hamma uchun umumiy ko'rinuvchi izi yoki o'ziga xos belgisi desak xato bo'lmaydi; metaforaning amal qilishi hayratomuzdir: atrofdagilarning muayyan tavsif yoki sifatlarni qo'llamay, "qog'ozga o'rab", butunlay boshqa kategorial guruhlarga tegishli so'zlarni qo'llagan holda gapirishiga qaramasdan, tinglovchi ularning muddaolarini xatosiz angelaydi;

Zamonaviy tarjimashunoslik bo'yicha jiddiy tadqiqot olib borgan A.A.Prokopeva milliy ong va madaniyatlar sathida milliy dunyoqarashlarning teng kelib qolishi muallif-tarjimon-retseptor o'rtasida metaforik

interpretatsiyaga doir o'zaro mutanosib talqinning vujudga keltirishini qayd etadi. Milliy realiya ramz, stereotip, metafora bilan chambarchas bog'liqdir. Har bir xalqning badiiy asarlariga xos milliy so'zlar o'sha xalqning milliy boyligi hisoblanadi, va mavqeyini oshiradi. Negaki, tarjimada qiyinchilikka uchraydigan so'zlar o'z holicha izoh bilan boshqa tillar lug'atiga kirib boradi. Xalq dostonlarida maishiy hayotimizda muhim o'rin egallaydigan oilaviy-maishiy marosimlar o'z badiiy ifodasini topgan.

Xalqimizda bu turdagi urf-odatlar talaygina va shunga o'xshash bir qator urfga aylanayotgan udumlar ham mavjud. Qadimda ota-bobolarimiz yashagan davrda ham to'y marosimlari, udumlar keng nishonlangan. Ushbu urf-odatlarining nomlari tilshunoslik nuqtayi nazaridan boshqa xalqlar uchun vujudga keladigan realiya hodisasini xalq dostonlari misolida tadqiq qilinadi. Lingvomadaniyatshunoslik obyekti hisoblangan birliklardan biri xalq maqollaridir. Xalq maqollari – xalq og'zaki ijodining asrlar osha avloddan avlodga, tildan tilga o'tib, kamol topib kelayotgan janrlaridan biri hisoblanadi. Ular ko'p asrlar davomida xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy tajribalari, hayotiy kuzatishlari asosida yuzaga keladi. Maqollarda xalqning hayot tajribasidan orttirgan saboqlari, xulosalari aks etadi.

Milliy madaniyatni ifodalovchi xos so'zlar har bir millatning qaysi millatga xosligini ko'rsatib beruvchi vositadir. Milliy o'ziga xos so'zlar; pul birliklari, geografik joy nomlari, urf -odatlar, ismlar barcha barchasi realiya hisoblanadi. Muayyan so'zning realiya tarzida paydo bo'lishi, avvalo, o'sha realiya yaratilgan hudud, mamlakat, millat, elat bilan bog'liq bo'lishini ham nazardan qochirmaslik kerak. O'sha narsaning qanday ahamiyat kasb etishi bilan u boshqa mamlakatlarga, balki dunyo bo'ylab tarqalib ketishi ham ehtimoldan yiroq emas. Taniqli tarjimashunos olim V.M.Rosselsning ta'kidlashicha, realiyalar – tarjima qilinayotgan tilga kirib kelgan va asliyat tilida muayyan milliy, mahalliy narsa va predmet yoki tushunchalarning nomini

ifodalaydigan soʻzlar hisoblanadi⁴⁷. Masalan, milliy taomlar, kiyim-kechaklar, milliy cholgʻu asboblari, roʻzgʻor anjomlari, nomlar, taxalluslar, laqablar, shahar va qishloqqa xos xususiyatlar, meʼmorchilik, geografik nomlar, tabiat manzaralari, hayvon va oʻsimliklarning nomlari, daraja, unvon, tabaqa va boshqa etnografik belgilarni bildiruvchi soʻz va iboralar kiradi.

Mazkur dissertatsiyada realiyaning qay jabhalarda namoyon boʻlishini koʻrib chiqdik. Linguomadaniy birliklar bilan aloqasi haqida toʻxtalib, ularning ham realiyaga xizmat qilishi misollar orqali koʻrsatib berildi. Badiiy asarlarda, xalq ogʻaki ijodi dostonlarda, maqollarda milliy urf-odatlarimiz misollar yordamida tushuntirilgan.

⁴⁷ Россельс В.М. Реалия. Краткая литературная энциклопедия. – Москва, 1971.



IV FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'UXATI
ME'YORIY – HUQUQIY HujjatlAR VA METODOLOGIK
AHAMIYATGA MOLIK NASHRLAR

1. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтариламиз. I жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. 592 б.
2. Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. 486 б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // Халқ сўзи, 2017, 8 февраль. № 28 (6722).

I. MONOGRAFIYA, O'QUV QO'LLANMA, ILMIIY MAQOLA, ILMIIY TO'PLAMLAR

1. Бартольд В.В. Сочинения. Том V. – М.: Наука, 1968.
2. Власова Е. А. Соотношение понятий «язык», «культура» и «картина мира» // Филологические науки. Вопросы теории и практики. Тамбов: Грамота, 2012. № 7 (18). Часть 1.
3. Воробьев В. В. Лингвокультурология: монография. М.: РУДН, 2008.
4. Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. М.: Изд-во Прогресс, 1984. 396 с.
5. Ё.Одиллов. Тил ва менталитет. // Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент, 2021. 3-сон. – Б. 43-49.

6. Жамолхонов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Галқин, 2005.
7. Жанпейсов Э. Этнокультурная лексика казахского языка. – Алма-Ата: Наука, 1989.
8. Жуманазаров Э. Қирғиз ва ўзбекларнинг никоҳ тўйи удумлари тарихидан (XIX асрхири – XX аср) // Ўзбекистон тарихи. – 2001. – №3.
9. Жўраев М., Худойқулова Л. Маросимнома. Ўзбек халқининг урф-одат ва маросимлари ҳақида қисқача маълумотнома. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. – 172 б.
10. Жўраев М., Худойқулова Л. Сурхондарё тўй маросим фольклорининг ўзига хос хусусиятлари // ФарДУ ахборотномаси. – Фарғона, 2005. 3-сон. – Б. 29-32.
11. Кисляков Н.А. Очерки по истории семьи и брака у народов Средней Азии и Казахстана.
12. Кириллова Н. Н., Афанасьева А. Л. Практическое пособие по лингвокультурологии: французский язык. СПб.: Изд-во СПбГУ, 2008.
13. Косвен М.О. ибтидоий маданият тарихидан очерклар. – Т., 1960.
14. Копыленко М.М. Основы этнолингвистики. – Алматы: Евразия, 1995.
15. Лобачева Н.Б. Формирование новой обрядности узбеков.
16. Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўлларини излаб ... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 10
17. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: издательский центр “Академия”, 2001.
18. Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2001. – 208 с.
19. Махмараимова Ш.Т. Лингвокультурология. – Тошкент: Чўлпон номидаги НМИУ, 2017.
20. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010.
21. Миртожиев М., Маҳмудов Н. Тил ва маданият. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. Б. 5

22. Откупшиков Ю.В. Диалектный материал и этимологии // Международный симпозиум по проблемам этимологии исторической лексикологии и лексикографии. Тезисы докладов. М., Наука, 1984.
23. Потебня А. Мысль и язык. Оглавление. Философия языка и мифа. – Харьков: Мирный труд, 1913.
24. Потебня А. А. Мысль и язык. М.: Лабиринт, 1999. – С.349.
25. Пропп В. Исторические корни волшебной сказки. Л.: Изд-во Ленинградского ун-та, [1946] 1986.
26. Сабитова З.К. Лингвокультурология: учебник. – М.: Флинта: Наука, 2013. – 528 с.
27. Сатторов М. Ўзбек удумлари.
28. Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М.: 1993.
29. Содиқов Қ. Тарихий лексикография. – Тошкент, 2011
30. Сухарева О.А., Бикжанова М.А. Прошлое и настоящее селения Айкыран. – Т., 1955.
31. Телия В.Н. Русская фразеология. – М.: 1982
32. Янги турмуш – янги анъаналар (тўплам). – Т.: Ўзбекистон, 1972.
33. Ashirov A. Etnologiya. Yangi nashr. – Toshkent: 2014. – B. 543.
34. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. – Toshkent, 2019.
35. Usmonova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. – Toshkent: 2015. – B.31.
36. Lingvokulturologiya tilning madaniy fenomeni sifatida Ahmedova Odinaxon Abdullajon qizi maqola Andijon DU
37. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab..// O'zbek tili va adabiyoti. – T.2012
38. Xaitbayeva Nazokat Adilbekqizi To'raqulova Maxliyo G'ayratqizi "Realiya" va "Realiya Birlig" Tushunchalari Tavsifi
39. Nadjimxodjayev Ma'rufxodja Sunnatovich. Realialarning Tarjima Qilishdagi Murakkabliklari (yapon tili misolida) maqola

40. Vaysburd M. Realities as an element of regional studies / M. L. Weissburd // Russian language abroad. — 1972
41. Соболев Л.Н. Пособие по переводу с русского языка на французский. — М., 1952.
42. Россельс В.М. Реалия. Краткая литературная энциклопедия. — Москва, 1971.
43. Влахов С., Флорин С. Непереваемое в переводе. М.:Международные отношения, 1986.
- 44.Крупнов В.Н. В творческой лаборатории переводчика. — Москва, 1976.
- 45.Виноградов В.С. Лексические вопросы перевода художественной прозы. — Москва, 1978
- 46.Gulsanam To'lanboyeva Sabohatxon Yusupova Lingvokulturologiyada "Stereotip" Tushunchasi Maqola Scientific Progress ilmiy jurnali 2023
- 47.Asqar Musaqulov O'zbek xalq lirikasi. Monografiya Buxoro 2014
- 48.Nikohdan so'ng amalga oshiriladigan urf- odatlar.(Alpomish dostoni misolida)
- 49.Maxbuba Baxshilloeyvna Sharipova BuxDU O'qituvchi Gulasal Shavkat qizi Farmonova BuxDU talabasi
- 50.Худойқулова Л. Сурхон воҳаси совчилик қўшиқлари ва айтимлари. / Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. Таниқли фольклоршунос олим, профессор О.Сафаров таваллудининг 70 йиллигига бағишланган илмий мақолалар
- 51.Россельс В.М. Реалия. Краткая литературная энциклопедия. — Москва, 1971.
- 52.Влахов С., Флорин С. Непереваемое в переводе. М.:Международные отношения, 1986.
- 53.Крупнов В.Н. В творческой лаборатории переводчика. — Москва, 1976.
- 54.Виноградов В.С. Лексические вопросы перевода художественной прозы. — Москва, 1978

DISSERTATSIYALAR VA DISSERTATSIYA AVTOREFERATLARI

1. D. Xudoyberganova. O'zbek tilidagi badiiy matnlarning antroposentrik talqini. Fil. fan. d-ri diss. Toshkent, 2015.

2. Sh. Maxmaraimova. O'zbek tili metaforalarining antroposentrik tadqiqi. Fil. fan. d-ri (DSc) diss. Samarqand, 2020.

3. B. Umurqulov. O'zbek badiiy nasrining lingvo-uslubiy shakllanish asoslari. Fil. fan. d-ri (DSc) diss. Toshkent, 2020.

4. Usmonov F. O'zbek tilidagi o'xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. - Toshkent, 2019, 21-bet.

5. Ҳақимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. н-ди. дисс. - Тошкент, 1993.

6. Ҳақимов М. Ўзбек тилида матнининг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри ... дисс. - Тошкент, 2001.

7. Қурбаназарова Н. Сурхондарё воҳаси тўй маросими этнографизмларининг семантик табиати ва лингвомаданий тадқиқи. Фил. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) дисс. - Термиз, 2021.

8. Ашуров Д.А. “Алпомиш” достонининг лингвокултурологик хусусиятлари”. Фил. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган дисс-си. Наманган - 2021, 127, 128-бетлар.

9. Мирзаалиев И.М. “Қадимги туркий халқлар мақоллар семантикаси ва стилистикаси”. Фил. фанл. бўйича (PhD) доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс-си. Тошкент - 2022, 154 бет, 14-бет.

10. Рустамова Д. “Метафорик эвфемизациянинг лингвокултурологик ва социопрагматик аспекти” Филол. фан. бўйича фалсафа доктори. (PhD) автореф. - Тошкент, Фарғона, 2018. - Ў.50.

IV. LUG'ATLAR

1. Большой энциклопедический словарь: языкознание / гл. ред. В. Н. Ярцева. – М.: Большая российская энциклопедия, 1998.
2. Берещагин Е. М., Костомаров В. Г. Лингвострановедческая теория слова. – М.: Русский язык, 1980. – С.
3. Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. 5-е изд., испр. и доп. – Назрань: Пилигрим, 2010.
4. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – М.: Издательство ИКАР. Э. Г. Азимов, А. Н. Щукин, 2009.
5. Худойберганава Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Т.: Турон замин зиё, 2015.
6. Ю.А.Рубинчик. Персидско-русский словарь. Издательство Советская энциклопедия. – М.: 1970 .
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томлик. 1-том. – М.: Русский язык, 1981. – 631 б.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томлик. 2-том. – М.: Русский язык, 1981. – 715 б.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎЗМЭ нашриёти, 2006. – 680 б.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдли, иккинчи жилд. – Тошкент: ЎЗМЭ Давлат нашриёти, 2006. – 671 б.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдлик, учинчи жилд. – Тошкент: ЎЗМЭ Давлат нашриёти, 2007. – 687 б.
12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдлик, тўртинчи жилд. – Тошкент: ЎЗМЭ Давлат нашриёти, 2008. – 606 б.
13. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдлик, бешинчи жилд. – Тошкент: ЎЗМЭ Давлат нашриёти, 2008. – 591 б.
14. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, Ўзбекистон Миллий энциклопедияси.

INTERNET MANBALARI

1. <https://diss.natlib.uz>
2. <https://natlib.uz>
3. <http://en.wikipedia.org/wiki>
4. <http://tpl1999.narod.ru/WebTPL2000/KlokovTPL2000.htm>
5. <http://www.lib.vsu.ru/elib/texts/217.pdf>.
6. <http://www.gramota.ru/book/ritorika/index3.htm>.